

SHAVKAT MAHMADMURODOV

**QADIMGI TURKIY YOZMA
YODGORLIKLARINING TIL
XUSUSIYATLARI TAHLILI HAQIDA**
(X-XIV asrlar yozma yodgorliklari)

MONOGRAFIYA

SAMARQAND – 2010

UDK:494.3

M -37

Shavkat Mahmadmurodov. QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLARINING TIL XUSUSIYATLARI TAHLILI HAQIDA (X-XIV asrlar yozma yodgorliklari). Monografiya. –Samarqand: SamDU nashri, 2010.- 84 bet.

BBK:81.2 Uz

Monografiyada eski o‘zbek adabiy tilining ilk davrlari, xususan X-XIV asrlari yozma adabiy tilini o‘zida aks ettirgan asarlarning lingvistik jihatdan tahlil etilishi haqida ba’zi ma’lumotlar yoritildi. Izohlanayotgan til hodisalari qisman VII-IX asrlarga xos bitiklar tili bilan ham qiyoslandi. Monografiya o‘zbek tili tarixi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir akademik **E.I.FOZILOV**

Taqrizchilar: f.f.d., prof. **USMON SANAQULOV**
f.f.n., dots. **QARSHIBOY USMONOV**

© ***Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2010***

SO‘ZBOSHI

X-XIV asrlar adabiy tili va yozma yodgorliklarning lisoniy xususiyatlari bo‘yicha, ayniqsa, hududiy jihatdan tavsiflab va davrlashtirib o‘rganish, dialektal asosining belgilanishi xarakterlidir. Bunda A.M. Shcherbak, A.K. Borovkov, E. Nadjip, E. Fozilovlarning ishlari muhim o‘rin egallaydi. Ularning asarlarida XI-XIV asrlar yozma adabiy tili, asosan, hududiy lahjalar yoki adabiy markazlarga bog‘lab o‘rganilgan. Bunda shu davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar turli hududlarda yozilganligi va o‘sha hudud qabilaviy lahjalar ta’sirida bo‘lganligi inobatga olingan. Bu davrlar tilining lahjaviy asosi bir necha adabiy markazga bog‘lab talqin etilib, har bir adabiy markazdagi mahalliy til mustaqil adabiy til deb qaralgan.

A.N.Samoylovich o‘zbek adabiy tili tarixini hududiy yoki adabiy markazlar asosida uchga bo‘lgan:

1. Qoraxoniylar davri adabiy tili (X-XI asrlar).
2. O‘g‘uz-qipchoq adabiy tili (XII-XIV asrlar).
3. O‘rta Osiyo adabiy tili (XIV-XX asrlar)¹.

Olim adabiy markazlarga xos lahjalar asosida bu davrlarda yagona adabiy til taraqqiy etgan, degan xulosaga kelgan. U hozirgi o‘zbek adabiy tilini esa O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilining davomi deb hisoblagan. A.N. Samoylovichning ushbu davrlashtirish haqidagi fikrlarida turkiy tillarning shakllanish bosqichlari asos qilib olingan. Ammo bu davrlashtirishda turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining ilk ildizlari, ya’ni qadimgi (VII-IX asrlar) umumturkiy til davri e’tibordan

¹ Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков -СПб. -1922; Его же. К истории литературного Среднеазиатско - турецкого языка. Сб. «Мир - Али Шир». - 1-23 с.

chetda qolgan. Shu kabi qoraxoniylar adabiy tili (X-XI asrlar) va o'g'uz-qipchoq adabiy tili (XII-XIV asrlar) tarmoqlarida yuzaga kelgan asarlarda qarluq tili ta'siri borligi hamda umumiy mushtaraklik kuchli bo'lganligi e'tiborga olinishi lozim edi. Shu asoslarga ko'ra bu ikki davr birlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchi davrda, chunonchi, Xorazm va Sirdaryo hududlarida yaratilgan asarlar tilida faqat o'g'uz-qipchoq unsurlarigina aks etgan emas, balki qarluq xususiyatlari ham bor. Shu kabi XIV-XX asrlar davri O'rta Osiyo turkiy adabiy tili deb qaralgan. Bu davrlarda o'zbek tili allaqachon mustaqil til sifatida shakllangan edi. Bu adabiy til O'rta Osiyo turkiy tili emas, asosan, qarluq tiliga asoslangan o'zbek adabiy tili bo'lgan. Davrlashtirishda bu xususiyatlar ham hisobga olinmagan.

A.M. Shcherbak o'zining ishida XI-XIV asrlardagi O'rta Osiyo umumturkiy adabiy tili davrida bir-biri bilan mustahkam bog'langan ikki adabiy til markazi bo'lganligini aytgan:

1. Qarluq-uyg'ur dialektiga asoslangan qoraxoniylar davri (XI-XIII asrlar) adabiy tili.
2. O'g'uz-qipchoq dialektiga asoslangan Oltin O'rda adabiy tili (XIII-XIV asrlar)² kabi.

Ammo, bu ikki adabiy markazlardagi til o'zaro juda yaqin bog'langan. Ular mustaqil adabiy tillar sanalmaydi va o'sha davrdagi yagona umumturkiy adabiy tilning tarmoqlari hisoblanadi. Olimning bunday fikrlari boshqacha tarzda ham aks etgan. Chunonchi, A.M.Shcherbak, O.Prisak hoqonlikning bo'linishi natijasida

² Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме (памятники древнотуркской и старотуркской письменности). -М.: Изд. Вост. лит., 1959. -С. 7. (171 с.)

qoraxoniylar muhitidagi (XI asr o'rtalarida) ikki markaz yuzaga kelganligini qayd etadilar. Demak, qarluq-uyg'ur tili adabiy markazi ikkiga bo'lingan. Masalan,

1. Balasog'un-Qashg'ar adabiy markazlariga xos Sharqiy hudud.
2. O'zgand-Samarqand adabiy markazlarga xos G'arbiy hudud kabi³.

A.M.Shcherbak o'z fikrlarini davom ettirib, XIII asr oxirlaridagi Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linganligini yozadi⁴. Demak, Chig'atoy ulusining bo'linishi natijasida ham ikki markaz vujudga kelgan:

1. Amu va Sirdaryo oralig'idagi markaziy hududlar, ya'ni Movarounnar hududi.
2. Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston (va Yettisuv) hududlari kabi.

A.M.Shcherbak ushbu fikrlar asosida XI-XVI asrlar yozma adabiy tilining yodgorliklarini belgilash bo'yicha quyidagi lahjaviy adabiy til markazlarini belgilaydi va ularga xos yodgorliklarni ko'rsatadi:

1. Qarluq (uyg'ur) dialekti asosidagi Sharqiy Turkiston adabiy tili (bu tilning yozma manbalari sifatida "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul haqoyiq", "Devoni lug'otit turk" va uyg'ur rivoyatlaridan aka-uka shahzodalar "Qal'yanam-qara va Papamqara", "O'g'uz" haqidagi afsonalar, Braxma yozuvidagi parchalar, "Qisas ar-Rabg'uziy" kabi yodgorliklar qayd etilgan)⁵.

2. O'g'uz va qipchoq dialektiga asoslangan Oltin O'rda adabiy tili (bu tilning yozma manbalariga "Muhabbatnoma", "Xusrav va Shirin"

³ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. -С. 16; Pritsak O. Karachanidisch Streitfragen, I4. Oriens, V- III, Nr. 2. -Leiden, 1950. - S. 228.

⁴ Щербак А.М. Кўрсатилган асар. -16 б.

⁵ Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана.- С.20, 30.

kabi asarlarni kiritgan⁶).

Umuman, A.M.Shcherbakning bu kabi fikrlari ilk eski o‘zbek yozma adabiy tilining shakllanish davrlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Nadjipning yozishicha, turkiy xalqlar yozma adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida ikki dialekt, ya’ni: uyg‘ur-qarluq va o‘g‘uz-qipchoq tillari muhim o‘rin egallagan. Xuddi ana shu til ta’sirida XI-XIII asrlar, jumladan, XIV-XV asrlar yozma adabiy tili shakllangan. Bu davr yozma yodgorliklarida bu xususiyat o‘z aksini topgan. A.Nadjip xuddi shu davrlarda, ya’ni XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrlarda ikki xil adabiy markazda, aniqrog‘i, uch adabiy markazda (lahjaviy xususiyati jihatidan farqlanuvchi) mustaqil adabiy til shakllanganligini yozadi⁷:

1. O‘rta Osiyo turkiysi asosidagi adabiy markaz (uyg‘ur-qarluq lahjasi asosida rivojlangan adabiy til guruhi). Bu til “Qutadg‘u bilig”, “Devoni lug‘otit turk”, “Hibat-ul haqoyiq”, “Tafsir”, “Qisas ar-Rabg‘uziy” kabi asarlarda o‘z aksini topgan.

2. Volga bo‘ylari va Ural hududlarida shakllangan adabiy markaz (o‘g‘uz-qipchoq tiliga asoslangan adabiy til).

3. Misr-mamluk adabiy markazi (qipchoq-o‘g‘uz lahjasiga asoslangan adabiy til). Bu adabiy markazlar tili “Qissai Yusuf”,

⁶ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. - С. 20-22.

⁷ Qarang: Наджип Э.Н. Кыпчакско-огузский литературный язык мамлюкского Египта XIV века: Автореф. дис.... д-ра филол. наук. -М., 1965. -С. 14. (-94 с.); Его же. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века. Кн. 1. -М.: Наука., 1979. -479 с.; Его же. Исследование по истории тюркских языков XI-XIV вв.-М.: Наука, 1989. -283 с.; Хорезми. Мухаббат-наме (Изд. текста, транскрипция, перевод и исследование Э. Наджиба). -М.: Изд. вост. лит., 1961. -С. 7. (223 с.),

“Muhabbatnoma”, “Xusrav va Shirin”, “Guliston bit-turkiy” kabi asarlarda o‘z aksini topgan.

E.Nadjip Oltin O‘rda-Misr va O‘rta Osiyo adabiy markazlarida o‘ziga xos aralash adabiy tillar taraqqiy etganligini ham ta’kidlaydi. Ular dialektal xususiyati jihatidan farqlanuvchi o‘ziga xos adabiy til sifatida qaralib bir necha tarmoqqa bo‘lingan⁸. Olimning bu sohadagi fikrlari turli shaklda bayon qilinsa-da, Oltin O‘rda, Xorazm va Misr adabiy muhitida yaratilgan asarlar tilida o‘g‘uz, qipchoq, qarluq lahjalarining xususiyatlari mavjud, degan xulosa chiqadi. Chunonchi, adabiy markazlar tilini mustaqil adabiy til tarzda emas, yagona umumturkiy tilning dialektal tomondan farqlanuvchi tarmoqlari deb qarash lozim bo‘ladi.

Olim o‘zining doktorlik ishida (XIV asrda yaratilgan yozma yodgorliklar tiliga asoslanib) Oltin O‘rda-Misr va O‘rta Osiyo adabiy markazlarida o‘ziga xos aralash adabiy tillar taraqqiy etganligini ham ko‘rsatadi va ularni dialektal xususiyatiga qarab bir necha tarmoqqa bo‘ladi:

1. XIII asrdayoq Misrda mamluklar hukmronligida sezilarli darajada rivojlangan eski turkman yozma tili.

2. Saljuqiylar, ayniqsa, ayubiyalar bilan Misrga kelgan o‘g‘uz va qipchoq qabilalari tili.

3. XII asr Oltin O‘rda-Xorazm adabiy tili. (Hatto, bu guruhlarini yana tarmoqlarga ajratgan holda alohida yozma til ko‘rinishlarini talqin etgan: 1. Eski turkman yozma tili. 2. O‘g‘uz-qipchoq yozma tili.

⁸ Наджип Э.Н. Кыпчакско-огузский литературный язык мамлюкского Египта XIV века: АДД. -С. 14

3. Qipchoq-o'g'uz yozma tili. 4. O'g'uz-turkman yozma tili. 5. Eski o'zbek adabiy tili kabi⁹). Bu adabiy markazlar tili aslida o'g'uz-qipchoq yoki qipchoq-o'g'uz tiliga asoslanganligi (ya'ni birida o'g'uz lahjasi ustun bo'lsa, ikkinchisida qipchoq dialekti ustun bo'lganligi) bilan farqlangan. Shu kabi bu markazlarga xos deb qaralgan yozma yodgorliklar tilida qarluq-uyg'ur tiliga xos unsurlar ham qo'llanganligi inkor etilmagan. Shuning uchun ham E.N.Nadjip bu davr adabiy markazlaridagi tilning dialektal asosini aralash tipli deb hisoblagan.

Darhaqiqat, Oltin O'rda-Misr, ayniqsa, Xorazm adabiy muhiti ta'sirida yaratilgan yozma yodgorliklar tilida Movarounnahr-Qoshg'ar (Sharqiy Turkiston) yoki qoraxoniylar hukmronligida bo'lgan hududlarda yaratilgan asarlar tiliga xos xususiyatlar ma'lum darajada mavjud. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xorazm adabiy muhitidagi yozma yodgorliklar tilida o'g'uz lahjasi ustunligi sezilarli bo'lsa-da, eskirgan (arxaiklashgan) leksik va morfologik unsurlarning ham mavjudligi bilan ular qadimgi turkiy va qoraxoniylar adabiy muhitidagi yodgorliklar tiliga bog'lanadi¹⁰.

Umuman, XI-XIV asrlar yozma adabiy tilining shakllanishi va dialektal asosini aniqlash masalasi ancha munozarali bo'lgan, bu borada turlicha fikrlar aytilgan. Bu holatni tilshunoslar tomonidan o'sha davrlarda mavjud bo'lgan yozma adabiy tilning lahjaviy asosiga ko'ra bir necha adabiy markazga bo'lib o'rganilishidan ham sezish mumkin. Ayniqsa, E.N.Nadjipning doktorlik dissertasiyasida adabiy

⁹ Nadjip E.N.. Ko'rsatilgan avtoreferat. -14 b

¹⁰ Фазылов Э.И. Староузбекский язык хорезмийских памятников XIV в. АДД. - Т., 1967. -С. 22, 23-25 (212 с.).

tilni hududiy lahjalarga qarab markazlarga bo'lish haqidagi fikrlari maydalashib ketgan¹¹. U adabiy tilning asosiy tarmoqlarini belgilash bo'yicha muayyan xulosaga kelishni chalkashlashtirib yuborgan.

E.I.Fozilov eski o'zbek tilining XIV asr Xorazm yozma yodgorliklari bo'yicha yozgan tadqiqotida E. Nadjipning XIII-XIV asrlarda vujudga kelgan ikki adabiy til markazi haqidagi fikriga qo'shilgan holda 4 ta Xorazm yodgorligini tahlil etadi. Lekin E.I. Fozilovning ta'kidlashicha, bu davrlarda yaratilgan asarlar tilida turli dialektlarga, jumladan, o'g'uz, qipchoq, bulg'or, uyg'ur va boshqa lahjalarga xos grammatik unsurlar uchraydi¹²". Shuningdek, u Xorazm adabiy muhitining tilida, asosan, o'g'uz dialektiga xos unsurlar ustun bo'lsa-da, Oltin O'rdada shakllangan qipchoq dialektining ham sezilarli ta'siri bor, deb qaragan va E.N.Nadjipning Oltin O'rda-Xorazm adabiy tili¹³ hududi guruhi tili haqidagi fikrlariga qo'shilgan.

Ta'kidlash joizki, adabiy markazlarga ko'ra turkiy tillar guruhlariga bo'lingan davrlarda har bir markazda hali turli qabila va urug'shevalari mavjud bo'lib, ular hozirgidek dialekt shakliga kirishga ulgurgan emas edi. Shu bois adabiy tilning dialektal asosini belgilashda ilmiy tadqiqotlardagi "dialekt" atamasining ma'nosi mahalliy-hududlarga nisbatan shartli qo'llangan, deyish mumkin. Demak, aslida bu davrlarda shakllangan umumturkiy adabiy tilning dialektal asosi urug'va qabilaviy lahjalar sanalgan. Chunonchi, turli hududlarda yaratilgan yodgorliklar tiliga har xil shevalar sezilarli

¹¹ Nadjip E.N.. Ko'rsatilgan avtoreferat. -14 b

¹² Фазылов Э.И. Староузбекский язык хорезмийских памятников XIV в. АДД.С.24-25

¹³ Nadjip E.N.. Ko'rsatilgan avtoreferat. -4 b

darajada ta'sir etgan. Ammo (ayniqsa, E.Nadjipning tadqiqotida) o'sha davrlarda shakllangan adabiy tilning dialektal asosini belgilashda hududiy bo'linishga, ya'ni hududiy tarmoqlariga nisbatan turli shakldagi atamalar qo'llangan. Atamalarning har xil qo'llanilishi o'sha davr adabiy tilini belgilashda va yozma yodgorliklar tilini (dialektal asosini) aniqlashda chalkashliklarga yo'l qo'yilganki, bu holatni E.I. Fozilov o'z tadqiqotida to'g'ri qayd etgan¹⁴.

E.I. Fozilov o'zining doktorlik ishida Xorazm adabiy muhitida yaratilgan "Guliston bit-turkiy", "Muhabbatnoma", "Nahdjul-farodis", "Xusrav va Shirin" kabi asarlar tilining dialektal asosini o'g'uz lahjasi tashkil etishini aytgan. Ammo olimning yozishicha, Xorazm adabiy muhitida yaratilgan yozma yodgorliklarda ancha qadimgi turkiy tilning ta'siri, ayniqsa, qoraxoniylar adabiy muhitining ta'siri bo'lgan. Jumladan, Xorazm yodgorliklari tilida "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul - haqoyiq" asarlari tiliga xos ba'zi xususiyatlar bor¹⁵ hamda Oltin O'rda-Misr muhiti tilining o'zaro aloqasi seziladi¹⁶. Demak, E.I. Fozilovning fikrlaridan XI-XIV asrlarda shakllangan adabiy tilda birinchidan, qadimgi turkiy (VII-X asrlar) davridagi yozma adabiy til xususiyatlari, ikkinchidan, qoraxoniylar muhitidagi (asosan, qarluq-uyg'ur, qisman o'g'uz-qipchoq lahjalariga asoslangan) adabiy til, uchinchidan, Xorazm-Oltin O'rda-Misr muhitidagi (o'g'uz-qipchoq va qisman qarluq-uyg'ur lahjalari asoslangan) adabiy tilining ta'siri bor degan xulosa chiqadi.

Haqiqatan ham, qayd etilgan XI-XIV asrlar yozma yodgor-

¹⁴ Fozilov E.I. Ko'rsatilgan avtoreferat. -9-10 66.

¹⁵ Fozilov E.I. Ko'rsatilgan avtoreferat. - 4, 11, 22-23 66.

¹⁶ Fozilov E.I. Ko'rsatilgan avtoreferat - 12 6.

liklarida bu xususiyat turli darajada aks etgan. Bu davrlar yodgorliklar tilining dialektal asosi haqida har xil fikrlar aytilganidek, yozma yodgorliklarning yozilishi davri bo'yicha ham turlicha mulohazalar mavjud. Chunonchi, A.M.Shcherbakning yozishicha, "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul haqoyiq", "Devoni lug'otit turk", "Qissasi ar-Rabg'uziy", "O'g'uznoma"¹⁷ kabi asarlar tilida qarluq dialekti ustunligi sezilarlidir. Q. Karimov, T.A. Borovkovlar "Qutadg'u bilig" va "Devoni lug'otit turk" asarlarini qoraxoniylar adabiy muhitida, "Qashg'ardan Kaspiygacha yoyilgan barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan tilda (Qashg'archa) yozilgan"¹⁸, umuman, qarluq guruhi qabila-urug'lar dialekti asosidagi adabiy tilda yaratilgan deb qaraydilar. E. Nadjipning yozishicha, 1332 yilda yozilgan "Muhabbat-noma" asarida qarluq-o'g'uz xususiyatlari sezilarli darajada bo'lgan. A. Shcherbak ushbu asarni 1353 yilda yozilgan deb qaraydi va qarluq tiliga xos xususiyatlari mavjudligi bilan Xorazm muhitidagi yodgorliklardan ajralib turadi deydi. Ushbu aytilganlardan sezilib turibdiki, XI-XIV asrlar adabiy tili va uning dialektal asosini aniqlash haqiqatan ham murakkab bo'lgan. Ushbu davrlarda yaratilgan asarlar tili, dialektal asosi bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalar tahlili va chiqarilgan xulosalar har xildir. Lekin aksariyati umumiylikka ega.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari adabiy tilining shakllanishi ko'p asrlik tarixga ega. Bu tarixni hali yetarlicha yoritilgan deb bo'lmaydi. Ayni davrda ham bu mintaqaviy adabiy tillarning qiyosiy tarixiy

¹⁷ Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. -С. 26; Его же. Огуз-наме. Мухаббат-наме. - С. 108.

¹⁸ Каримов Қ. Илк бадиий дoston. -Т.: Фан, 1976. -6, 8-9. 14-66. (223 б.); Боровкова Т. А. Грамматический очерк языка "Дивану лугат-ит-турк" Махмуда Кашгари.: АКД. -Л., 1966. - С. 4. (-15 с.).

taraqqiyot yo‘lini o‘rganish turkologiyaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. To‘g‘ri, bu borada anchagina ishlar amalga oshirilgan. Ammo mintaqamizdagi turkiy xalqlarning yozma yodgorliklarining til xususiyatlari hali to‘liq darajada o‘rganilmagan, bularning anchagina qismi bo‘yicha ilmiy tanqidiy tekstlar yaratilmagan. Hozirgi zamon talabiga javob beradigan har bir davr obidalarini sistemali ravishda lingvistik tahlil qilish keyingi davrlarda, xususan, mustaqillik yillarida boshlandi. Turkiy milliy adabiy tillarning taraqqiyot qonunlari va ularning o‘zaro aloqasi va munosabati hanuzgacha to‘liq, ya’ni mukammal tekshirilmagan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, bu muammoni ilmiy hal qilishda eski obidalar tilini o‘rganish, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham so‘nggi davrlarda O‘zbekistonda bu borada, xususan XI-XIV asrlarga xos tarixiy yozma manbalarning lingvistik tomondan o‘rganishga katta ahamiyat berila boshlangan edi.

XI-XIV asr yozma yodgorliklarini har taraflama puxta ilmiy nazariy va amaliy jihatlarini monografik tarzda o‘rganish, ularning tanqidiy matnini yaratish, va hozirgi tilimiz yozuvi asosida chop etish, fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikasini chuqur tahlil qilish sohasida o‘zbek tilining tarixi bo‘yicha qator tadqiqot ishlari olib borilib, ularning natijalari chop etilgan. Masalan, A.M. Shcherbak, S. Mutallibov, G‘. Abdurahmonov, E.I. Fozilov, H. Ne‘matov, A. Rustamov, S. Shukurov, Q. Sodiqov, E. Umarov, Q. Mahmudov, N. Mahmudov, X. Dadaboyev, Q. Karimov, A. Nurmonov, S. Ashirboyev, A. Matg‘oziyev, I. Yuldashev, B. O‘rinboyev, U. Sanaqulov kabi olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Amalga oshirilgan ishlar tilimiz

taraqqiyoti tarixining ma'lum davrlarini yoritishda, uning istiqbolini belgilashda va ma'naviy me'rosimizni tiklashda muhim o'rin egallaydi. Ammo, muammoning o'rganilish darajasi hali ham me'yoriga yetganicha yo'q.

Afsuski, ayni paytlarda o'zbek tilining tarixini o'rganish sohasida juda kam ilmiy tadqiqotlar yozilmoqda, vaholanki, endilikda juda ko'p tarixiy yozma obidalar yuzaga chiqib, ularni lingvistik tomondan o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatdan unumli foydalanish mumkin. Xuddi shu maqsadda samarqandlik iste'dodli olim Shavkat Mahmadmurodov sohada ilmiy tadqiqot ishlarini boshlagan edi. U mazkur risolasida imkoniyat darajada ma'lum bir davrlarda yaratilgan yozma obidalarining lingvistik tahliliga o'z diqqatini jalb etgan. Chunonchi, uning mazkur kitobi XI-XVII asrlar davomida Markaziy Osiyo, Oltin O'rda, Kichik Osiyo, Shom kabi hududlarda yaratilgan turkiy xalqlarning adabiy tillarida yaratilgan obidalarni qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Unda muallif tekshirilayotgan adabiy tillar o'rtasidagi umumiy holatlar va farq qiluvchi grammatik xususiyatlarni aniqlashga harakat qiladi. Shu kabi matnlarning (leksik, fonetik, morfologik, sintaktik) tahlillarida horijdagi mashhur sharqshunos-turkologlar va respublikamizdagi taniqli tilshunos olimlarimizning tadqiqotlariga tayangan holda o'z fikr-mulohazalari bildiradi.

Filologiya fanlari doktori

Usmon Sanaqulov

BIRINCHI BOB

QARLUQ(CHIGIL-UYG‘UR) DIALEKTAL XUSUSIYATI USTUNLIGIDAGI ADABIY TIL

Prezidentimiz I.A. Karimov ona tilining ahamiyatini ta’kidlab: “Ona tili bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘ladi. O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarurdir”¹⁹, degan fikri o‘zbek tiliga e’tiborni kuchaytirish, uning tarixini yanada yaxshiroq o‘rganish, ravnaqi va kelajagi haqida qayg‘urishga undaydi. Shu ma’noda o‘zbek tilshunosligida til tarixini chuqur tadqiq etish, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni kuchaytirish, mukammal darsliklar yaratish kabi dolzarb vazifalar qo‘yildi. Jumladan, o‘zbek yozma adabiy tilga xos fonetik, morfologik qurilishining shakllanishi va taraqqiyotini belgilash ham muhim sohalardan biri sanaladi. O‘zbek tilshunosligida bu masalani mukammal yoritish uchun hali maxsus tadqiqotlar olib borish zarurati bor.

Ma’lumki, tarixiy ilmiy manbalarda turkiy yodgorliklar tili yaratilgan o‘rniga qarab nomlanib kelingan va o‘sha hududga xos adabiy tilni aks ettirgan deb qaralgan. Chunonchi, bular qoraxoniylar davridagi adabiy til, qoraxoniyy-uyg‘ur tili, Sharqiy turkiy til, chigatoy tili, o‘rta turk tili, xorazmcha turkiy til, qarluq-xorazmiy tili, o‘g‘uz-

¹⁹ Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т.: Ўзбекистон, 2000. 23 б.; Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998. -5 б.

qipchoq tili, Oltin O'rda tili, Xorazm-Oltin O'rda tili (XIII-XIV asrlarga nisbatan) va hokazolar.

Nomlari qayd etilgan ushbu hududiy adabiy tillar hozirgi zamon turkiy tillarning deyarli hamma guruhlariga bevosita aloqadordir. XI-XIV asr adabiy tillarining shakllanish jarayoni ko'p asrlar (taxminan ikki asr) avval boshlangan bo'lib, mazkur davrga kelganda u katta so'z boyligiga ega bo'lib, ma'lum bir adabiy qolipga tushgan edi. Xususan, til qurilishining leksik qatlami, jumladan, morfologik va sintaktik jihatdan belgilangan qat'iy normalarga ega bo'lgan adabiy til sistemasi yuzaga kelgan edi. XV asrgacha mavjud bo'lgan bu hududiy adabiy tillarga asosan akademik A.N. Samoylovichning tasnifidagi janubiy-sharqiy, shimoliy-sharqiy gruppalar tillari asos bo'lgan. Bulardan tashqari, og'uz-turkman, qipchoq guruhlarining bevosita ishtiroki muhim rol o'ynagan.

XI-XVII asr adabiy tillarning tarqalish doirasi, ya'ni hududi nihoyatda keng bo'lgan. Jumladan, hudud Koshg'ar, Xuroson, Xorazm, Sirdaryo, Amudaryo, Volga bo'ylari Oltin O'rda, Qrim, Misr, Shom kabi o'lkalarni qamrab olgan edi²⁰. Biz ushbu o'rinda Qoraxoniylar sulolasi haqida ba'zi malumotlar keltiririshni lozim topdik. Zero bu sulola davri adabiy tili bilan Movarounnahrda vujudga kelgan umumturkiy, jumladan, eski o'zbek tilining (yirik komponentini tashkil etgan qorluq) adabiy tili bilan bog'liqdir.

1.1. Qoraxoniylar va ular sulolasining yuzaga kelishi. Biz ushbu o'rinda avval qoraxoniylar atamasi haqida qisqa bir ma'lumotlar

²⁰ Тихонов Д.И., Хозяйство и общественный строй уйгурского государства X-XVI веков. –М. - Л.,1966, Бартольд В.В. Лекции по истории турецких народов Средней Азии. Сочинения. Т-V.-М.,1968.

bilan to'xtalishni lozim topamiz. Manbalarda "qoraxoniylar" atamasi turlicha talqin qilingan: ba'zilarida turk (t'u-kiue) so'zidan yuzaga kelgan deyilsa, ba'zilarida uyg'urga yoki qarluq-chigillarga, shu kabi o'g'uz-turkmanlarga, nihoyat, oxirgi natija qarluq-yag'molarning birlashmasi ma'nosida qayd qilinadi. Hatto, bu haqda rivoyatlar ham mavjud. Rivoyatlar haqida o'rni bilan fikr bildiramiz.

Turk olimi A. Dilocharning fikricha qoraxoniylar asosan qarluqlardan bo'lgan²¹. Mashhur sharq filologlarining asarlarini qiyosiy tadqiqi, prof A.Dilocharning fikrini rad etadi. Chunki o'sha vaqtlarda bu kabi katta hududda yashagan aholi ko'pi qurama bo'lgan, ya'ni qarluq, chigil, uyg'ur, turkman, og'uz, qipchoqlar ko'p o'rinda bir-birlari bilan aralash yashaganlar. Shu sababli qipchoq, qarluq, chigil, uyg'ur yag'mo va boshqalar orasida aniq bir farqli chegara belgilab chiqilmagan. Ularning tilidagi so'z va grammatik belgilar ko'p o'rinda aralashib ketgan²² bo'lgan.

Endi qoraxoniylar sulolasining yuzaga kelish masalasiga kelsak bu borada biz olimlarning ishlariga tayangan holda ularning o'ziga xos quyidagi hukmronlik davrlarini qayd etishimiz mumkin:

705-715-yillarda Eronning Shimoliy-sharqidagi Xuroson vohasida Qutayba ibn Muslim g'arbdagi turkiy xalqlar asosida O'n-O'k davlatini tashkil qilgan va u bu davlat chegarasi Movarounnahr (Transoxiana)gacha yetib borgan. Arablar 751-yilda Talas urushida xitoyliklarni mag'lubiyatga uchratib, 776-yilda Ili va Chu daryolariga

²¹ Dilacar A. Kutadgu biliq incilemesi, Ankara 1972, 13c

²² Fazylov E.I Turkic Languages in the Works of Oriental Philologists (11th-18th cc) AO, Budapest, 1981, 55-6.

bostirib kirgan. Bu davrlarda uygʻur-qarluq birlashmalari, yaʼni Qoraxoniylar maʼlum darajada oʻziga xos mavqega ega edi. Arablar 792–806-yillarda Qoraxoniylar bilan toʻqnashib, 960-yillarga kelib qarluqlarga oʻz taʼsirini oʻtkazishga muvofiq boʻlgan va ularga islomni qabul qildirib boshlagan.

Yozma manbalarga koʻra, Sosoniylar shahzodasi Nasrning saʼy-harakati natijasida, Qoraxoniylar islomni 932-yilda Abdulkarim Satuk Bugʻra Qoraxon zamonida qabul qilishgan. Bu ulkan diyordagi aholi bungacha buddaga (burxonga) sigʻinganlar. Shubhasiz, bir yil ichida hamma islomga oʻtmagan, albatta. Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig"idan tortib to Durbekning "Gul-u Navruz"(yoki "Gul va Navroʻz") asarigacha burxonni yoʻq qilishga chorlaydigan misralarni kuzatish mumkin. Bu fikrlar badiiy asarlarda bejiz yozilmagan boʻlsa kerak. Har holda Qoraxoniylar islomni bir necha davrlar oraligʻida qabul etishgan.

Satuk Bugʻra Qoraxondan soʻng Sulaymonxon, soʻngra Xorun al-Xasan Bugʻraxon (vafoti 992-y.) taxtga oʻtiradi. Asta-sekin Qoraxoniylar davlati kuchayib, uning taʼsir doirasi butun Movarounnahrga oʻtadi. Elig Nasr bin Ali 999-yilda Buxoroni egallaydi va shu davrlardan boshlab Somoniylar davlatiga xotima beriladi. Erondagi Somoniylar sulolasi vakillari (874-999) 999-1003-yillar orasida bu yurtlardan quvgʻin ostiga olinib, turkiy xalqlardan boʻlgan gʻaznalik Mahmud (970-1030-yillar) taxtga oʻtiradi. Uning davrida Qoraxoniylarning gʻarbiy chegaralari tinchligi taʼminlanadi.

Qoshgʻar hukmdori Yusuf Qodirxon (vafoti 1032-y.) Qoraxoniylar davlatini birlashtirishda katta xizmat qilsa-da, 1047-yilda uning farzandlari davlatni oʻzaro boʻlib olishadi. Natijada davlat boʻlinib ketadi. Qodirxonning toʻngʻich farzandi Sulaymon Arslonxon (Qoshgʻarda shahzodalik davridagi ismi Bugʻra Tegin) boʻlgan, shimolda Mahmud Bugʻraxon (vafoti 1074, shahzodalik ismi Yagan, yaʼni fil) Tegin Talas, Shosh//Choch (hozirgi Toshkent) va Isfijob (Chimkent) Tugʻrul va Xorun, Uzkend, Fargona vodiysi kabi hududlarni boshqarishga muyassar boʻladi.

Qoshgʻarda Sulaymon Arslonxon 1056-yilgacha hukmronlik qiladi, keyinchalik uning oʻrniga oʻgli Xasan bin Arslon (toʻliq ismi Hoqon Tavgʻach UlugʻBugʻra Qoraxon Abu Ali Xasan bin Arslonxon boʻlgan, vafoti 1103-y.) hokim boʻladi. Xasan Bugʻraxon Qoraxoniylar orasida bilimli fan, adabiyot, tarix ahliga eʼtiqod va hurmat bildirgan arbob boʻlgan. Sulaymon Arslonxonga nisbatan turkiy xalqlar orasida Xorun ar-Rashid degan nom berilgan. Xullas, Mahmud Gʻaznaviy davridan boshlab turkiy elatlarning mavqeyi koʻtarila boshlandi. Xuddi shu davrlardan qarluqlar birlashmasi kuchaya boshladi. Qoraxoniylar sulolasining namoyandasi Abdulkarim Satuk Bugʻra Qoraxon davridan Xasan bin Arslon davrlarigacha oʻtgan davrlarda, yaʼni Qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi hududlarda ilm-madaniyat sohasida koʻpgina ishlar amalga oshdi. Jumladan, sulolaviy tarixnavislik davom etdi, tilshunoslik va adabiy muhit rivojlandi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgʻariy, Husayn al-

Almai, Ahmad Yassaviy, Jamol Qorun kabi bir qancha mashhur ijodkorlar yetishib chiqdilar.

Darhaqiqat, Qoraxoniylar davrida "Qutadgu bilig", "Devoni lugʻatit-turk", "Kitobu javohirin-nahvi fi-lugʻatit-turki", "Tarixi Qoshgar" (Imom Abdulfattoh Abdulgʻaffor bin al-Husayn al-Almai, vafoti 1093-y.), Qurʻoni karim tafsirlari kabi mashhur asarlar yaratilgan edi. Turkiy xalqlarning tasavvufi asoschisi Ahmad Yassaviy (Sayramda tugʻilib Yassida 1166-yili vafot etgan) yashab ijod qilgan. Jamol Qorun (Olmaliqda tugʻilgan), 1292-yilda "Mulhaqatus-sura" asarini yaratgan.

Hasan Bugʻraxondan soʻng Qoraxoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Toʻgʻri, Hasanxondan soʻng bir qator xonlar yashab oʻtgan. Jumladan, sharqda Muhammadxon III (vafoti 1211-y.), gʻarbda Muhammadxon (vafoti 1182-y.), Fargʻona vodiysida Usmonxon (vafoti 1212-y.) shular sirasiga kiradi. Lekin Sharqdan kelgan moʻgʻullar-Qoraxitoylar (kitanlar) hurujlari Qoraxoniylar sulolasining inqirozga uchratadi. Oqibatda Qoraxoniylar davlati parchalanib ketadi. Qoraxoniylar davlatining gʻarbiy qismi Xorazmiylar tasarrufiga oʻtadi.

Qoraxoniylar va ularning davlati haqidagi turli xil rivoyatlar ham mavjud. Koʻp asrlik tarixi bilan mashhur boʻlgan Qoraxoniylar davlati nomi qadimgi baʼzi bir afsonalar bilan bevosita bogʻliq.

Rivoyatlarga ko'ra Koinotning Bosh Tangrisi ("Buyuk boy" ma'nosini anglatgan) Boy-O'lgandir to'qqiz qavat oltin tog'ning ustidagi ko'k saroyda istiqomat qilar ekan. Ilk odamni okean tubidagi balchiqsimon moddalardan yaratib unga Erlik (Kayraxon) otini bergan ekan. Uning rafiqasining oti Xonim bo'lgan. Bulardan yetti farzand dunyoga kelgan: Qarshit, Baxtagan, Qora, Qushxon, Qanim va Yayiq. Bulardan Qoraxon (qiyos: inglizlarning Black Prince, 1330-1376) nur, yorug'likka to'la ota-ona dargohidan qochib qorong'ulik girdobiga yo'liqadi. Afsonalarga ko'ra, Qoraxon yulduz tangrilaridan biri bo'lib, rangi va boshqa belgilariga ko'ra Zuxalga (Saturnus' ra) o'xshaydi.

Zuhalni qadimiy Bobilliklar "Qora yulduz" deb atashgan. Turkiy xalqlarning mifologiyasida O'tugan (Otuqan) ona yer yuzi (so'ngra Muqaddas Qutli o'rmon), O'luken (pok sut), Qut (Saodat va barakat), Sur (jondorlar va narsalarning ruhi). Tun (yomon ruhlar), Sarixon (Saruxon) afsonasi Qoraxondan avval bo'lganligi haqida rivoyatlar bor. Boshqa bir afsonalarga ko'ra Qoraxon Mo'g'ulxonning to'ng'ich o'g'li bo'lgan emish.

Afsonalardan ilmiy asoslarga o'tilsa, Qoraxon-buyuk, bosh xon demakdir. Turk-mo'g'ul xalqlari yer yuzi (kurrasini) hududlarini to'rt rang bilan atashgan: Qora - shimol, qizil - janub, ko'k (moviy) - sharq, oq - g'arb. Turkiy xalqlarida shimoldagi hukmron "Buyuk xon"

sanalgan. An'analarga ko'ra, qora "buyuklik, yuksaklik"ni anglatgan. Qoraxonga ma'nodosh Ilelxon (Eligxon) nomi ham uchraydi. Manbalarda qora so'zi seriste'mol bo'lgan:

- kishi nomlari tarkibida: Qora Temur, Qora Bug'a, Qora Tugma, Qora Botir, Qora Yusuf, Qora Usmon, Qora Bakir, Qora Vosif kabilar;

-joy nomlari tarkibida: Qora O'rdu, Qora shahar, Qora-Xocho, Qoraqurum, Qora-balg'asun, Qoraqum, Qora-Ko'l, Qoratog'va h.

- totem tarkibida: Qora-Kuyunlu, Qoraqalpoq.

Demak, Qoraxon nomi uzoq tarixga ega bo'lib, o'ziga xos o'tmish voqealari va rivoyatlar bilan bog'liqdir. Bu nom tarixda katta iz qoldirgan. Bu davr turk hoqonlari nomlari tarkibida ham qadimiy ananalar bilan bog'liq hayvonot olamidagi so'z va kalimalarda keladi. Sulaymon Arslonxon-Bug'ra Tegin (Bug'ra-tuyaning ayg'iri ma'nosini ifodalagan), Mahmud Bug'raxon, yoki Yagan Tegin(Yagan fil ma'nosini anglatgan), Buxoro vohasining farzandi Ibrohim Bug'raxon (Bo'ri Tegin) va h.

Qoraxoniylar davridagi kishi va joy nomlari turli sohalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bular turkiy xalqlarning 12 burjda (Zodiak) va 12 Taqvimida kelgan hayvonlar bilan ham bog'liq atalgan.

Ma'lumki, o'sha davr tilida burjlar: Kuzi (hamal), ud (savr), erandiz (egizak qiz), kuchik (saraton), bug'doy boshi

(sunbula), ulgu(mezon), gazan (aqrab), yoy(qavs), uspok (Jadiy), kupak (dalv), baliq (hut) kabi soʻzlar bilan nomlangan.

Taqvimlar esa: Sichqon, Ud (sigir), Bugʻra, Bars, Tavishgʻan, Lu(Ajdar), Milan, Yund(ot), Qoʻy, Bichin (maymun), Tagʻuq (taqaqu-tovuq), It, Toʻngʻuz kabi atamalar bilan atalgan va boʻlar oʻsha davr tilida aks etgan. Jumladan, madaniy markazlardan: Samarqand, Buxoro, Forob (Oʻtror), Choch/Shosh (Toshkent), Balasagʻun (Suyob), Qoshgʻar (Urdukent), Isfijob (Chimkent), Olmalik kabilar uchraydi.

Bu kabi xususiyatlarni yuqorida qayd etilgan barcha adabiy markazlarda mahalliy aholi tilida va ular orqali badiiy adabiyot sahifalarida uchratish mumkin.

Har bir adabiy markazlar bilan oʻsha davrda uzoq oʻlka va davlatlar oʻzaro madaniy aloqalarda boʻlishgan. Buning dalili sifatida Gollandiyaning Leyden nomli universiteti kutubxonasida saqlanayotgan Sayfi Saroyining "Guliston bi-t-turkiy" qoʻlyozmasidagi shoirlar mushoirasini keltirish joiz boʻladi.

1.2.Adabiy markazlardagi badiiy aloqalar. Sayfi Saroyining "Tuliston bi-t-turkiy" asari badiiy aloqalarning namunsidir. Ushbu asar qoʻlyozmasi 793- xijriy (milodiy 1390-1391) yilda koʻchirilgan boʻlib, XIV asr shoirlarining mushoirasini oʻz ichiga oladi. Bu toʻplamda Sayfi Saroyi

o'sha zamonning shoirlaridan Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Isxoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi, Xorazmiy, Abdulmajid, Tug'li Xoja, Hasan o'g'li kabilarning g'azallariga mushoira qilib yozgan she'rlarini qayd etish mumkin. Shu kabi usulda Xojamiyning bir g'azali va Sayfi Saroyining o'n uch g'azali bor.

To'plamdan mashhur "Muhabbatnoma" dostonining muallifi Xorazmiyning qasidasi ham o'rin olgan. To'plamga kiritilgan qo'lyozmalar orasida Ozarboyjon xalqining klassik shoiri shoir Hasan o'g'lining ijodidan ham bir g'azal bor. Bu g'azal shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuora" asariga ham kiritilgan. Davlatshohning yozishicha, shoirning asl nomi Shayx Izzudin Puri Hasan Asfarayoniy bo'lib, u fors va turk tillarida juda yaxshi she'rlar yozgan. Forsiy she'rlarida u o'zini Puri Hasan, turkiy she'rlarida esa Hasan o'g'li deb atagan. Uning she'rlari Ozarbayjon, Turkiya, Shomda keng tarqalgan edi.

Qirimda yashagan shoir Abdulmajidning "Kalifuz - Zunun"i ikki manbada ma'lum bo'lib, uning yana "Munisul-ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") deb ataluvchi Yusuf va Zulayxo to'g'risidagi sevgi dostoni ham mavjud. Aytishlaricha, Ibn Arabshoh Abdulmajidni Qrimda uchratgan. Bu voqea 814 xijriyda, ya'ni 1411/12-yillarda sodir bo'lgan²³.

²³. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. I китоб. – Т. Мехнат, 1992., 12-б.

Shoir Ahmad Xoja as-Saroyi Oltin O'rdadan bo'lib, xon saroyida xizmat qilgan. Shuning uchun ham uning taxallusi ham Saroyi deb qayd qilingan.

Shuni ta'kidlash kerakki, katta iste'dod egasi Sayfi Saroyi o'z to'plamiga shoir va ularning she'rlarini tanlab olishda ma'lum bir tizimga amal qilgan. Shubhasiz, Sayfi Saroyi o'z zamonasining badiiy adabiyoti va uning vakillariga tanqidiy yondashgan. Shoir o'z masnaviysida dunyo shoirlarining dono tasnifini katta odob bilan keltiradi.

*Jahon shoirlari ey gulshani bog',
Kimi bulbul durur so'zda, kimi zog'.
Kimi to'ti bekin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o'rtar dararni.
Kimining so'zlari mavzunu shirin,
Kimining loiki tashrifu tahsin.
Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi halvo kabi shalg'om cho'bin yer.
Kimi ma'niy qo'yub lafzin tuzo'tur,
Kimi vaznin buzub, san'at kuzo'tur.
Alarning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi.
Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtariy bil.*

Demak, Sayfi Saroyi o'z zamonasining atoqli vakillaridan biri bo'lgan. U eski turkiy adabiy tilning shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

Bu o'rinda Qutbning ijodi ham o'ziga xos o'rin egallashini aytish joizdir. Qutbning "Xusrav va Shirin" asari o'sha davr adabiy tilining shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lib, u Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan yagona qo'lyozma hisoblanadi. Qo'lyozma hijriy 785- (1383/84 milodiy) yili safar oyida Berka Faqih tomonidan Misrda ko'chirilgan. Bizgacha, shu misrlik kotib tomonidan ko'chirilgan nusxa yetib kelgan.

Xullas, yuqorida aytib o'tilgan adabiy til markazlari bir-biridan uzoq masofalar bo'lishidan qat'iy nazar, u yerlarda yaratilgan asarlar qayd etilgan ijodkorlarga yetib kelgan. Ular bir birlarining ijodlaridan xabardor bo'lib, doimiy madaniy aloqada bo'lishgan va o'zaro ta'sir qilib kelishgan.

1.3.Tarixiy manbalarning shakl va mazmuni.
Ma'lumki, qoraxoniylar adabiy tili, qipchoq-o'g'uz adabiy tili, chig'atoycha adabiy til, xorazmcha adabiy til, Oltin O'rda adabiy tili, O'rta turk nomlari bilan atalgan bir qancha adabiy til ko'rinishlari o'sha davrlarda turli hududlarda mavjud dialekt, shevalari ustun bo'lgan madaniy markazlar adabiy tili sanalgan. Qayd etilgan adabiy markazlarda yaratilgan asarlarda o'sha hududda ustun bo'lgan dialektal xususiyatlar ijodkorlar asarlarida bevosita o'z ta'sirini qoldirgan.

Bunday ko‘rinishdagi adabiy tilda yaratilgan manbalar turli shaklda bizgacha yetib kelgan. Ulardan ba’zilari badiiy asarlar shaklda bo‘lsa, ayrimlari tarixiy obidalar(buyum va qabr toshlardagi bitiklar), mahkama vasiqalari, turli tipdagi hujjatlar, tarjima kitoblar, qonun va sutralar shaklida bo‘lgan. Ularda ma’lum darajada grammatik formalar, leksik birliklar o‘zaro aralashishi bilan quramalik xususiyatlarni ham kuzatish mumkin. Qoraxoniylar davridagi adabiy tilning yorqin namunasi "Qutadg‘u bilig" tilida o‘z aksini qoldirgan. Chunki "Turkistonda hech kim Bug‘raxon tilida bu kitobdan yaxshiroq asar yozmagan"²⁴. Bug‘raxon tili deb ta’kidlangan til Bug‘raxon tasarrufidagi barcha ellar tilini o‘zida aks ettirgan adabiy til namunasi bo‘lgan.

V. Bartold o‘zining "Qutadg‘u bilig"da tilga olingan Bug‘raxon kimdir?" nomli maqolasida Yorkentda topilgan arabcha mahkama vasiqalarda (1081-1135 yillarga oid) shu ismli shaxslar qayd etilishi, ular tarixiy shaxslar ekanligini ta’kidlaydi. Bunda Sulaymon Arslonxonning o‘g‘li bo‘lgan hoqon Tavg‘ach Bug‘ra Qoraxon Abu Ali Hasanning o‘g‘li deb izohlanadi.

Qayd etganimizdek, XI asrning ikkinchi yarmida Qoraxoniylar saltanati Qoshg‘ardan tortib Kaspiygacha bo‘lgan keng maydonni o‘z tasarrufiga olgan edi. Bepoyon va ulug‘davlatning markazi Qoshg‘ar (O‘rdukent) bo‘lib,

²⁴.Каримов К. Илк девон.-Т.1972.

uning shimolida muhim markazlaridan Balasog'un (Kuzurdu), g'arbda Samarqand bu shaharlar o'rtasida O'zgand kabi bir necha shaharlar bor edi. O'sha davrlarda yaratilgan "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'atit turk", "Hibatul-haqoyiq" kabi asarlarda eski turkiy adabiy til normalari aks ettirilgan. Mazkur adabiy tilning ta'sirini Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisas ar Rabg'uziy", Kutbning "Xusrav va Shirin", Mahmud bin Alining "Nahjul-Farodis" kabi asarlari tilida ko'ramiz.

Fikrimizning isboti uchun, avval "Nahjul farodis", "Qisas ar Rabg'uziy", "Xusrav va Shirin", "Guliston bit-turkiy" kabi asarlardan parchalar keltirilib, so'ng ularning lingvistik tahliliga to'xtalamiz. Zero, birinchidan, quyidagi parchalarni keltirishdan maqsad, dastavval o'sha davr adabiy tilining namunasi bilan tanishtirish, u haqda yaqqol tasavvur hosil qilish, ikkinchidan, ilmiy manbalarda o'sha davr tilining fonetikasi, morfologiya va sintaksisga ko'p o'rinda misollar keltirilmaganligi sababli, ushbu parchalar, ya'ni ilova qilingan matnlar orqali yetarli darajada misollarni berilishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Lekin aytish joizki havola etilgan parchalarda hamma grammatik shakllar uchramasa-da, ma'lum bir guruh affikslarning aktivligi shubhasiz seziladi. Shu maqsadda quyida o'sha davr adabiy tilini o'zida aks ettirgan asarlardan parchalarni havola etdik.

"Qisas ar Rabguziy" dan:

*Ey ko'nglum ovunchasi o'grab yiroqqa bormagil,
Yarliqa yelguz onangni bag'rini o'rtamagil.
Er ersang o'zun tun tilagil tamom,
Telimlar tilak tunda topdi tamom.(1,79 s.)
O'n ikki ukak yetti aqron qislik,
Eng ilki ko'zi, uy, arandand, kuchik.
Kur arslonma bug'doy boshi ulkararo aro,
Chayon ham yey, ug'loq, qo'naq ham baliq,
Yana yetti yulduz bularda yuriyur,
Sakandir, o'ngay qurud ham yashik,
Sakit, orzu, yalchiq yegitek bo'lur,
To'qushdin usanma qizibon erik.(1,101s.)
Bu ko'nglum murodga teginmak tilar,
Telim xalqlar aro ukunmak tilar.
Kun, oy sajda qilg'ay arig'yuzga man,
Bu kun otdin inib yukunmak tilar.(1D14s.)
Qamug'yignalar tun tikar qizdurur,
Yana o'zi ko'rsang yalang'och qolur.
Chirog'ma ulashu ko'yar o'rtanur,
Azinlarga ko'rsang yorug'luk berur(1,118).
Ko'z ko'rgani jamol u,
Sevmak ani halol ul.
Andog'jamol qurubon,
Kim sevmasa vabol ul(1,119 s.).*

*Sabo istayur, yig'och yeng solur,
Bulut yig'layur, chechaklar kular
Bu mundog'chechaklikda ko'nglum bu kun,
Saning birla bo'lub ovunmoq tilar(1,121.).
Eng ilki tishi aydi:
To'lun oyni ko'rsang tugar kumiyur,
Arig'hurni ko'rdi ulash o'ynayur.
Ikkinchi tishi aydi:
Hamul oyni ko'rgan yag'iz yer uza,
Asekin yurirda ko'ngul bulg'ayur.
Uchunchi tishi aydi:
Adiz ko'kda oni yaratti izi,
Bu kun ko'rsa oyga kelib tunayur(1,130-131.).
Bu biztek qatig'kinda kim bor bu kun,
Uruldi arig'jonga to'rmuk tugun.
G'ariblikda erksiz tushub iylanib,
Essiz un qarindosh o'larmiz bu kun(1,130-131.).
Zuhra, kamar shikorimiz,
Qirg'iz, xitoy tavorimiz.
Yugurur qiziq yiporimiz,
Yinju, guhar nigorimiz,
Kunindaki kunorimiz,
Sanchishmaga ormiz,
Burnindaki mahorimiz(1,130-131.).
Ushbu dunyo ichra ko'rdu bosh oyoq to'lug'cho'g'i,*

Tinglayu turdum tugal yosh un sigit inchik yig'i.
Dunyo ermish bir uluksak qiymati yo'q hyech aning,
Asig'i yo'q, ul og'u yanglig'andin ortuq sasig'i.
Bu uluksak tegrasida ko'rdum ersa ko'p telim,
Itlar urushib talashurlar bir-biriga bo'lub yegi.
Eng so'nggi itlar ular qolur arig'siz sasig'et,
Mundin ortuq ermas ermish ushbu dunyo totig'i.
Na ekan tuproq ostin keng jahonga sig'magan,
Tor lahad ichra yoturlar yurkanib atlas, ag'i.
Mustafoqa jofiy dunyo qilmadi, ko'rgil vafo,
Tegdi oxir arig'qa bu o'lumning achig'i.
Rabg'uziy Nosir tayanma tunla kunduz ingranib,
Sayragil, suchuk tilingdin so'z chiqar, so'zlar sog'i.
(11,197.)

Agar yuqorida keltirilgan matnlarni birma-bir lisoniy jihatdan qiyoslab tahlil qilsak, Nosiruddin Rabg'uziy tilida qo'llanilgan qadimgi so'z va iboralar qatlami, grammatik shakllar Qoraxoniylar davri va XIV asr Xorazm, Oltin O'rta adabiy tilida ham keng iste'molda bo'lganligini ko'ramiz.

"Qisasi Rabg'uziy" ning ikki jildiga ilova qilingan lug'atga nazar tashlasak, bunda katta bir leksik qatlam, so'z va iboralarning qadimgi davr tili bilan mushtarakligining shohidi bo'lamiz. Masalan, adim-teri; adiz-ulug', aziz, buyuk; yuksak, baland; adoq- daryoning quyilish joyi, pastgi qism;

azin-boshqa; azoq-oyok; azril-ayrilik; ayva-bexi;al-xiyla;
alin-peshona; urkach; anut-hozirlamoq; tayyorlamoq; arig'-
 sof, pok; asig'-foyda, naf;ashnu-avval, qadar;ashoq-
 past;ag'i-mato, ipak; ag'loq-pana; ag'ri-yuk; bitik-xat, bosh-
 yara; bo'lun -asir; bulung-taraf, tomon; bus-tuman; bo'sug'-
 pistirma; bo'z-bo'y,qad; bo'zun-xalq, bo'lak-tuhfa, sovg'a;
yerin-ertaga; yerik-zirx, sovut, yegi-dushman; ivuk-kiyik; ig-
 xasta; Izi-Xudo,Tangri; ikinduk-peshin; yigan-urg'ochi tuya;
 in-tushmok; itig-o'tkir; yig-yaxshi; yig'iz-hid; yi-tik-o'tkir,
 yo'l-buloq; ariq; kezin-keyin; kend-shahar; qiz-kiymoq;
 kirpich-g'isht, kirpich; kuzak-kuyov; kung-xizmatkor,
 joriya; kuni-to'g'ri; mini-miya; ong eslamoq; og-tur; sircha-
 shisha; sichak-chumchuq; sogu-tarozi; sung'u-nayza,
sungan-piyoz; taba-tomonga; tapor-bolta; tapug'-xizmat;
 sajda; tamug'-duzax; tanuq-guvoh, belgi; tekma-har bir;
telim-ko'p; terk-tez; tishi - xotin, ayol; urg'ochi; tuch-
 bronza; tura-qonun-qoida; rasm-rusm; turka-ipak; ud, uy
 sigir, ujmox-jannat; uz-mohir; ishbilarmon; uzi-uxlamoq;
ukak-burj; o'kush-ko'p; uragut-ayol, xotin; urung-oq; uchuk-
 arqon; cherik-qo'shin; chizon-chayon; chig'ay-yo'qsil,
 kambagal; chovxabar; dong; elkun-xalk; eran-kishi, odam;
ernak-barmoq; esparlah-iltijo qilmoq; etmak-non; eshkak-
 eshak; yalavoch-payg'ambar; yalchik-oy; yanut-javob;
yarmaq-pul, yashik- dubulg'a; yagan-fil; yashik-quyosh; ug-
 es; uga-dono; ugdu-xamd; Ungay Mushtariy; ungin-begona;

utachi-tabib; ugur-vaqt, payt; kazgu-qayg‘u; qamug‘-hamma; qang-arava; apug‘-eshik; qag‘un-qovun; qoz-g‘oz; quzuruq quyruq; kulaguz-yo‘l boshlovchi; kurt-bo‘ri; kugu-oquv; qo‘z-qumoq; kul daryoning qurigan uzani; kul- suramoq; kuch-qo‘chqor; abushqa-qari, kekxa, chol, qariya va h.

Kutbning "Xusrav va Shirin" asari leksikasida ham qorxoniy adabiy tilining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi.

"Qisasi Rabguziy" da keng iste’molda bo‘lgan grammatik formalar va qadimgi leksik qatlamning ko‘pchiligi poetik asar bo‘lmish "Xusrav va Shirin"da ham uchraydi Ul yozuqlig‘turur. Aning uchun bizga kelmadi, tedilar ersa odam aydi, kim²⁵. Bu jihatdan "Nahjul Farodis" asarida ham yuqorida qayd qilingan o‘xshash so‘zlar va grammatik formalar keng qo‘llanilgan. Ushbu fikrni dalillash maqsadida XIV asr prozasidan namuna sifatida bir necha sahifa **"Nahjul- Farodis" dan** keltiramiz:

Vohidiy aydi: Qachon kim Qobil Hobilni o‘lturdi ersa, tani jumlası qarordi(qoraydi). Bu dunyodagi hindular taqi habashiylar jumlası aning urug‘idin turur teb aydi.Qachon kim Odam payg‘ambar alayhisalom as Ka’badin qayitti ersa, jumla o‘g‘lonlari istiqbol qilu qarshu bordilar. Hobilni ko‘rmadi ersa, savol qildi kim, Hobil manga nima qarshu kelmadi teb aydi ersa, aydilar kim, Sizlar yolg‘on aytursiz, aning xabarini manga Jabrail bildurub turur,-tedi. Taqi

²⁵. Фазылов Э.И. О словаре "Хусрави Ширин" Кутба. Тюркская лексикология и лексикография. -М.,1971. с. 304-310.

Qobilga la'nat qildi, taqi aydi: yo Rabbi bu Qobilni sen halok qilgil, - tedi ersa, Qobil qochti, taqi sahroka chiqti. Haq taolo ikki farishtani iza berdi. U ikki farishta u Qobilning azoqini tutub yeti qata bu dunyoni tezgindurdilar, jumla a'zolari pora-por bo'ldi.

Bani Isroil ichinda bir kim ersa bor erdi. O'kush mollig erdi taqi bir qizi bor erdi. Sohibjamol erdi taqi bu kim ersaning qarindoshining o'g'li bor erdi. Bu qizga oshiq erdi taqi darvish erdi. Nechama bu ayolni tilasa, otasi qarindoshi o'g'liga bermaz erdi. Bu o'g'ul andisha qildi kim, bu ammunni o'ltursam taqi munung molini olsam ham taqi qizini olsam teb qasd qildi. Taqi bir kun ammi qo-tinga kirdi taqi aytur: ey ammun, falon yerda karvon kelmish. Ikagu borsak, taqi menim uchun mato' olu bersangiz, Sizga hurmat qilib tururlar taqi manga bermazlar,-tedi ersa, ammi taqi bordi. Qachon kim Qaydum otlig'yerga yettilar ersa, bir tosh oldi taqi bu o'g'ul am-mini u tosh birla o'lturmish erdi. U ammining boshi yanchildi taqi o'ldi. Bu o'g'ul to'nini yirtti taqi faryod qilu evga keldi. Aydi kim Qaydum otlig'yerga ammunni o'lturmishlar teb yig'layu keldi ersa, bu o'lgan taqi qarindoshiining o'g'li ham bor erdi taqi o'ngin ekevuklari jumlası aydilar kim muni sen o'lturub turursan teb tuttilar taqi Muso payg'ambarg'a eltilar ersa, Muso payg'ambar alayhisalom andin so'rdi ersa, avval tondi, kim bu ammunni o'lturmadim teb aydi ersa jumlası Muso payg'ambardin

darxost qilarlar kim, yo Muso, rabbungdin tilagil kim, bizga xabar bersun, bu o'lganni kim o'lturdi teb darxost qildi ersa, Muso payg'ambar Haq taoloqa munojot qildi, aydi: yo Rabbi, munlarga bayon qilg'il kim, bu o'lganni kim o'lturdi teb munojot qildi ersa, Haq taolodin farmon keldi Muso payg'ambarka kim, buyurg'il mundarga-kim bir inak bo'g'uzlasunlar taqi ul inakning tili birla ul o'lganni ursunlar tirilgay taqi o'zi xabar bergay,-tedi ersa, Muso payg'ambar qavmi aydi: ey Muso, bizga masxara -mu qilursan,- tedilar ersa, Muso payg'ambar aydi: val-'ayozu billohi, payg'ambar kim ersa masxara qilmoq ravo bo'lmaz,-tedi ersa, qavmi aydilar kim, ey Muso, bu inakning yoshi ne miqdor kerak teb savol qildilar ersa, Muso payg'ambar alayhis-salom aydi kim bu inak ham yigit taqi kerakmaz ham qari taqi kerakmaz, o'rta yoshlig'kerak, - tedi Ibni Abbos aydi Rojalou anhu: agar Bani Isroil Muso payg'ambardin inak yoshini surmadin bir inakni bo'g'uzlasalar erdi, maqsudlari hosil bo'lg'ay erdi.

Va lekin o'zlaringa zahmat orturdilar. Tekma bir savol qilmishlarinda Muso payg'ambar taqi Haq taolo farmoni birla bir sifatni orturdi. Bu ma'nidin o'tru sahobalar payg'ambar (a.s)-din ukush savol qilmaz erdilar. Bani Isroil Muso payg'ambardin yana savol qildilar kim, yo Muso, bu inakning yoshi bizga ma'lum bo'ldi va lekin bu inakning rangi netak turur, teb savol qildilar ersa, Muso payg'ambar

(a.s) aydi kim, bu inakning rangi sarig'turur, va lekin qoramtul sarig'turur. Aning sarig'likinga boqgan taajjub qilur,-tedi ersa, yana savol qildilar, kim, bu inakning yoshi ma'lum bo'ldi taqi rangi ma'lum bo'ldi, valekin bu inak ishlagan inakmu turur, yo taqi sahroda o'tlagan inakmu turur,-teb savol qildilar ersa, Muso payg'ambar alayhissalom aydi: Sahroda ishlagan inak ermaz, valekin sahroda o'tlagan inak turur taqi taninda oq tab bor taqi qora tab yo'qturur taqi aybi ham yo'q, - tedi ersa, bu sifatlig inakni bir kim ersada bildilar, valekin o'ngdin yerda bilmadilar. Bir farishta odam suratinga kelib ul inak izisinga aydi: bu sifatlig'inakni hech bo'lmadilar, magar senda bor. Zinhor va zinhor inakni anlarga sotmagil, magar bu inakning kuni tulug'qizil oltun bersalar andin so'ng sotgil, teb aydi.

Bu ishga sabab u erdikim Bani Isroil ichinda bir solih kim ersa bor erdi taqi aning norasida bir o'g'li bor erdi taqi ul solih kim ersaga ajal evudi ersa, evinda bir buzog'u bor erdi. Ul buzog'uni bordi taqi sahroda bir o'rmon ichinda qo'ydi. Taqi aydi: yo Rabbi, bu buzog'uni sanga isporladim. O'g'lum ulg'aymishta muni sen anga ro'zi qilg'il, - tedi. Taqi qayitti. Bu o'g'ul ulg'aydi. Otasitek solih qupti. Orqasi birla o'tun kelturur erdi taqi u o'tunni sotar erdi taqi aning bahosini uch ulush qilur erdi. Bir ulushini darvishlarga sadaqa qilur erdi taqi ikki ulushini onasi birla tanovul qilur erdi. Taqi kechani ham uch ulush qilib turur erdi. Bir

ulushini uyur erdi taqi bir ulushini toat qilur erdi taqi bir ulushini onasi boshi qotinda ulturur erdi. Bir kun onasi aydi: ey o'g'lum, har kun o'tun kelturmakdin taqi manga xizmat qilmoqdin emganding. Otang manga aymish erdi kim, falon sahroda bir buzog'uni Haq taoloqa isporladim erdi. Agar o'g'lum ulg'aysa, u sahroga borgay taqi u buzog'uni talab qilg'ay teb aymish erdi. Emdi karak kim borsang taqi u buzoguni talab qilsang. Agar Haq taolo ro'zi qilsa, ani tutsang taqi sotsang, ro'zg'oringga madad bo'lsa,- tedi ersa, o'g'li aydi: Andog'qilayin,- tedi ersa, onasi aydi: Ey o'g'lum, u buzog'u emdi ulug'inak bo'lmish bo'lg'ay. Muncha yildin beru sahroda o'tlamishda sanga netak bo'y bergay? Valek inakni ko'rsang, aygil: Ey Ibrohim payg'ambarning taqi Ismoil payg'ambarning taqi Is'hoq payg'ambarning Rabbi, bu inakni manga qaytarg'il teb duo qilg'il taqi qotinga borg'il. Bo'lgay kim sanga bo'y bersa,- tedi ersa, o'g'li taqi andog'qildi ersa, ul inak hech qochmadi tek turdi ersa, bu o'g'ul taqi ul inakni tutti taqi keldurdi ersa, onasi aydi: Ey o'g'lum, bu inakni bozorga eltgil taqi sotgil, tedi ersa, o'g'li aydi: Ey ona, nechaga sotayin,-tedi. Onasi aydi: Uch oltunga olsalar bergil,-tedi.

Bu o'g'li ul inakni elturda farishta odami suratinga bo'lub kelib aydi erdi ul so'zni. Bu o'g'ul taqi onasinga aydi- kim, ey onam, men bu inakni keltururda bir kim ersa aydi kim, ey yigit, zinhor va zinhor bu inakni sotar bo'lsang,

terisi tulug‘qizil oltunga bersalar, sotgil, andin eksukka sotmagil teb aydi ersa, onasi aydi:andog‘qilg‘il,-tedi ersa, o‘g‘ul taqi andog‘qildi. Bani Isroil ichinda rozi bo‘ldilar taqi u inakni bo‘g‘uzladilar taqi terisini qizil oltun birla tulturub ul o‘g‘ulqa berdilar ersa, ul taqi onasinga kelib aydi ersa, onasi taqi sevundi. Andin so‘ng u inakning tili birla u o‘lganni urdilar erdi. Haq taolo farmoni birla kishi tirildi taqi aydi, kim meni falon o‘lturdi,-tedi taqi yiqildi, jon berdi. Burunki tek bo‘ldi ersa, tuttilar ul o‘lturganni taqi o‘lturdilar. Moldin taqi mahrum bo‘ldi qizdin taqi mahrum bo‘ldi...

Bir xalifa bor erdi. Ingan zolim erdi. Oti Xajjoj erdi. Aning zamonasinda bir olim bor erdi. Ingan zohid taqi porso erdi. Ukush sahobalarni ko‘rub anlar xizmatinda bo‘lmish erdi. Oti Sayd ibni Jabir erdi (r.a.). Bu Sayd Xalifaga ukush va‘z-u nasihat qildi. Hech aning va‘zini qabul qilmadi ersa, ul Sayd ibni Jabir aydi: emdi bizlarga bu elda turmoq bo‘lmaz: Erta kecha bu zolimning zulmini eshiturmiz taqi hech nasihatimizni eshitmaz, hamisha xotirimiz mundin mungiz bo‘lur-deb aydi. Taqi eldin chiqti taqi sahrolarda, tog‘lar ungurinda turur erdi, o‘t-ko‘kin yeb toat va ibodat qilur erdi. Bir kun Xajjoj so‘rar vazirlariga kim Sayd Jabir ukush zamona bo‘ldi kim, bu eldin chiqmish. Xajul-farobis (Yanash Ekman nashrida Nahjl - Farodis).

Keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, Qoraxoniylar davri adabiy tilining "Nahjul farodis", "Qisas ar Rabg‘uziy", "Xusrav va Shirin" kabi asarlarining leksikasi va grammatikasida ta’siri katta bo‘lgan. Ammo. umuman olganda, bu davrga kelib Qoraxoniylar adabiy tili arxaiklashgan, iste’mol doirasi chegaralangan adabiy til sifatida qayd qilingan.

O‘g‘uz, qipchoq, qorluq dialektlarining o‘sha davrlar adabiy tiliga ta’siri “Muhabbatnoma”, “Guliston bit-turkiy”, “Muinul-murid” kabi asarlarda ham kuzatiladi. Bu asarlarda xalq so‘zlashuv tiliga yaqinligi esa yanada ochiq seziladi. Bu o‘rinda Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridan quyidagi parchalarni hovola etamiz:

Bir olimdan so‘rdilar: "Xilvatda bir oy yuzli uzdan" bilan bir kim ersa o‘tursa, eshik bog‘lab, nafsi g‘olib dag‘i shaxvati tolib bo‘lsa, nechuk kim arab aytur: "attamru enitun vannoturu g‘ayr moni’in". Hech kim ersa porsolik quvvati bilan ul holdan salomatku to‘la bilgaymi?"

Aytti: "Agar u oy yuzlidan salomat qutula bilsa, muddailar malomatindan qutula bimagan".

Aytti: Oqar tengizni tiysa bo‘lur, valekin har muddai tilini tiysa bo‘lurmi bo‘lmas.

Hikoyat

Yetmish yashar bir qari er, qiz o‘g‘lona evlandi dag‘i evin chechaklar bilan bezadi. Ko‘nglun aning muhabbatini

bog‘lab, jamolini qarshi o‘turub, uzun kechalar uyumayin
ajoyib g‘aroyib, latifalar aytur edi: bo‘lg‘aykim, vahshati
ketib muvonasat tutkay deb, dag‘i aytur edikim: "Buyuk
baxting uyog‘, davlating yoriy qildikim, bir kishiga
tushtung, jahon ko‘rgan (33 a) ko‘b tajriba qilgan, issi-sovuq
tatkan, eyguni, yomonni sinagan, suhbat haqqin bilgan,
do‘stluk shartni yerini keturgan, mushfiq erman.

Shukr qilkim, bir mu‘jib yigit elina tushmadingkim har
kun bir havoga uchkay dag‘i har kecha bir yuvada yetkay va
har soat un turli kirish boshlagay va har doim yuz turli
sukunchlar sukkay.

She’r

Vafo istamagil bulbuldan, e y e r

Ki har bir gul uza yuz turlu sayrar

Ammo jahon qurgan kishi aql va adab bilan tirilur.

She’r

Uzungdan eygu birlan ulturub tur,

Yomon er birla qilma umr zoye’.

U er aytur: Bu ma’nidin ancha so‘zladimkim sag‘indim
ko‘nglun so‘zuma bog‘ladi, dag‘i o‘zi manga sayd bo‘ldi". U
issi yuzli qiz savuq harakat qilib aytti: "Muncha so‘z kim sen
so‘zlading, mening aqlim tarozusinda u qadar degulkim o‘z
qabilimdan bir masal eshittimkim aytti:"Yigit epchi eninda

qari er kelib o'turguncha, katti edan chiqqan o'q o'tursa yaxshiroq turur!"

She'r

*Vaqtiki degul erindan epchi rozi,
Borishmas alar necha buyursa qozi.
Doyim kerishirlar it bilan mochitek,
Bo'lmayin alar biri-birindan rozi.*

Filjumla, imkoni muvofaqat bo'lmadi esa, muvofaqat ixtiyor qildilar, chun muddati illat tamom bo'ldi esa bir yigit ani aqdi nikoh qildilarkim, turish yuzli, achi so'zli, yomon xulqli edi. Qiz javrin chekib aytur edikim: "Alhamdulilloh u azobi alimdin qutu lub, bu ne'mati muqimga tushtum".

She'r

*Ey o'zga duosindan javring manga ko'b yaxshi,
Ko'nglumda muavvardur jonim bu yuzung
naqshi.*

*Oy yuzlunung og'zinda gar bo'lsa sugan isi,
Huryatning elindagi guldan manga yaxshi.*

Hikoyat

Shayx Sa'diy aytur: Diyor Bakr (135 b) elinda biroq soqolli Xoja meni evina qunoq eltti. Moli ko'b dag'i ne'mati farovon:bir sohibjamol o'g'li bor edi. Xoja boshladikim umrum ichinda mundin o'zga o'g'lum bo'lmishi yo'q turur.Ul qarshi(da)gi vodiy ichinda bir muborak xurmo

ag'ochi bor. Xaloyiq borib ziyorat qilib hojat tilarlar. Men dag'i borib, uzun kechalarni qisqa qilib, u ag'och ayoqida bosh ochib, duo qilib, hojat tiladim. Tangri taolo manga bu o'g'ulni berdi. Eshittim u o'g'lon eronlarini aytur edi: "Tong bilan men dag'i borib u ag'ochka hojat tilagayimkim, otam terkrak o'g'ay". Otasi sevunur. "O'g'lum oqil va ziyrak deb, o'g'li dambadam ta'nalar ururkum, otam qarib munub turur deb.

She'r

135 a. *Kechar yillar otang turbasina bir*

Keliban o'qimishing yo'q takbir.

Otanga eygulukni qilding esa,

Ani tutkil tama' o'g'lingdan, ey pir.

Hikoyat

Shayx Sa'diy aytur: Suhbatimizda bir yigit bor edi, kulach yuzli, shirin so'zli, latif suratli, zarif siyratli, jahon qayg'usidan forig'bo'lub ozod yurur edi. Ittifoq tushtikim qatimizdan safar etti. Bir necha yildan so'ngra ko'rdum xotun olmish, o'g'lonlari ulg'aymish, nishotiy guli sulub, mufarriq ayshi talaf bo'lub edi. Aytim: Bu ne holat turur? Aytti: Ul vaqt o'g'lonlar otasi bo'ldum dag'i o'g'lonlik qilmadim".

She'r

Qari bo'ldung yigitlikdan aling yuv,

Bilarsankim, yana qaytmas oqar suv.

*Yigitlikni yigitlarga qo'yub ket,
Bu kun tongda uchun ko'b eyguluk et.
Bichin vaqti kelib bug'doy yetib tur,
Ko'zung och uyqudankim, tong otibdur.
Bezanib bir qari xotun tishi oz ,
Bo'yab sochin qaroga ko'b qilur noz.
Men ayttim: "Ey uzun yoshli oni, kel
Yetar, qisqa qil emdi hiyladan el.
Kesildi yuk ko'turgan kuch belingdan,
Ketubdur nozuk erdamlar elingdan.
Bilursankim qilib bir hiylani voz.
Beling bukrulgani bulmas yana tuz.
Jamoling bog'i gulzori sulubtur,
Uzun umring dag'i oxir bo'lubdur".
Ul aytti: "Rost ayting, ey yigit sen,
Nedayimkim jahondan to'ymayib men".*

Hikoyat

Bir kim ersa aytur: yigitlikning g'oyat vaqtinda yo'l qatti yurub, xasta bo'lub, mag'rib vaqtin bir ag'och tubuna yetib yettim, karvon so'nguncha bir qari er kelur edi. Meni ko'rub aytti: " Ne etursan, etasi er degul. Tur, ketalim!" Ayttim: "Nechuk ketayimkim yurunga toqatim yo'q: Aytti: "Bu masalni eshitkaning yo'qmikim (137 b), o'tura tura ketmak yaxshiroq andinkim terk yurub qolgaysan".

She'r

*Ayo musta'jil er, manzilga mushtoq,
Oshiqmayin otingni surgul arkun,
Qolur bir jumla chobsa pahlavon ot,
Teva arkun yurur oson tunu kun.*

Hikoyat

Bir kun Rustam onasina qatti so'zladi. Aning ko'ngli og'rib, yig'lab aytti: "Magar kichiklikni unuttungkim ulug'luk etarsan.

She'r

*Onasi injinib Rustamga aytti:
"Ayo ko'rgan uzun hiybatli arslon".
Agar bo'lsa edi edingda u kun,
Kim elimda eding bir yashar o'g'lon.
"Bukun bo'yla manga javr etmas eding
Ki sen bir pahlavon, men bir qari jon".*

Hikoyat

Bir baxil tojirning o'g'li xasta bo'ldi. Do'stlari kelib anga aytdilar: "Maslahat u dururkim, bu xasta uchun Qur'on xatm etkaysan yo bazali qurbon (137 a) qilgaysan. Bo'lg'aykim Tangri taboruk va taolo sihati komil bergay". Bir zamon andishaga borib aytti: "Qo'ylar cho'pon koinga yiroq turur. Qur'onni men o'qigayim:". Bu so'zni eshitib, bir

orif kishi aytti: "Xatm etmakni aning uchun ixtiyor qildikim Kur'on til uchinda dag'u oltun jon ichinda turur".

She'r

*Kuni bo'lsa aning toatka bo'yni,
Saodat tunlukin doyim to'qigay.
Vale bir aqcha izlasang berur jon,
O'qu "alhamdu" desang, yuz o'qigay.*

Hikoyat

Bir qari erga ayttilar: "Nechun evalanmassan " Aytti: "Qari xotunlar birlan boshim xush degul".Ayttilar:"Yigit olgil, chun ne'mating (138 b)bor, quvvating yetar". Aytti:"Menkim qariman. Qari xotunlar bilan ulfatim bo'lmaganda ulkim yigit turur, mening kibi qari bilan ne qadar do'stluk suratin bog'lag'ay".

She'r

*Yoshi yetmishga yetgan bir qar i er,
"Tilarman bir qiz o'g'lon olmag'a", der.
Elinda ne'mati ko'b, kulfati oz,
Kim elda mo'tabar bir ullu bazzoz.
Tilab oldi bir uzdan qiz yuzi oy,
Oti Inju, otasi belgili boy.
Nechukkim rasm edi bo'ldi tamosho,
Yedilar ul kecha ko'b turli halvo,
Keturdi yangalar qizni kuyovga*

*Kirib yotti ul ikkisi bir evga
Kuyov egni uz qizning egasi
Qarining turmadi ul dam tayog'i
Chekib ye, tuldurub uk forisona,
Urur lekin o'qi o'tmas nishona.
Turub erta muni hujjat keturdi,
"Manga to'ymas ko'zum xijlat keturdi.
Uchunchi kun alar mahkam urushti,
Kuyub ko'zi evin bekka turushti.
Tutub Sayfi Saroyi qiz erini,
Latifa so'zladi ko'zlab yerini,
"Ayo axmoq kuyov yetmish yasharsan,
Eling titrar nechuk inju tesharsan,
1336. Bukundan so'ng bu ishdan tavba etkil,
Qilib eygu amal jannatka ketkil.*

Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy"si tarjima asar bo'lishi, izchillik bilan asl nusxaga amal qilinishi, adabiy til traditsiyasini saqlanishidan qat'iy nazar, xalq so'zlashuv tilining ta'siri kuchlidir. Asarda xalqchillik, so'zlashuv tilini adabiy tilda aktiv ishtirokini alohida qayd etish lozim bo'ladi.

Ahmad Yassaviy (XII asr) she'riyatida, Qul Alining "Qissai Yusuf" (1212-yil) dostonida, Muhammaddiyorning "Nuri sadur", "Tuhfai Mardon", asarlarida qipchoq tilining

ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Bularda tatar, qozoq tillariga xos xususiyatlar ustunlik qiladi.

Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra, Qashg'ar*dan yuqori Chingacha butun turk o'lkalarida turk yozuvi deb atalgan, hozirgi uyg'ur alifbosiga asos bo'lgan va adabiyotda uyg'ur yozuvi nomi bilan mashhur bo'lgan alifbo keng iste'molda bo'lgan va idora-ish yuritish yozuvi sifatida ishlatilgan. Bu yozuv Markaziy Osiyo, Oltin O'rda, Eron, Turkiya va Ovro'pada XVI asrgacha iste'molda bo'lgan va unda bitilgan obidalar saqlanib qolgan.

Bu davrlarda arab yozuvi, ayniqsa, keng tarqalgan idora, asosan diniy va ta'limiy, ilmiy yozuvi hisoblangan. Bu yozuvga keyinchalik ayrim qo'shimcha belgilar ham kiritilgan, masalan, bu arab yozuvida bitilgan yozma manbalarda o'z aksini topgan.

Turkiy xalqlarning madaniy markazlari Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo, Volga bo'yi, Shom, Misr kabi katta bir mintaqani o'z ichiga olgan. Bu o'lkalarda turkiy tilda yaratilgan adabiyot o'z mohiyati bilan aslida bir adabiy tilni tashkil qilgan. Lekin bu adabiy til o'z taraqqiyot jarayonida bir qator oraliq (hududiy) davrlardan tashkil topgan. Har bir oraliq davr (qoraxoniylar adabiy tili, Xorazm adabiy tili, chig'atoy adabiy tili kabi) muayyan tadrijiy taraqqiyot tizimini izchillik bilan saqlab kelmagan bo'lsa-da, yozma manbalarda ma'lum darajada til vositalaridan foydalanish,

grammatik formalar, soʻz boyliklarini tanlash, ularni qoʻllashda oʻzgachalik kuzatiladi. Bunday nomuntazamlik asar mualliflarining oʻz etnik muhitiga ergashuvi bilan ham bogʻliq boʻladi.

Bizgacha yetib kelgan koʻpchilik qoʻlyozmalar turli saviyadagi yoki har xil joylarda yashagan turkigoʻy kotiblar yoki turli elat vakillari boʻlgan xattotlar tomonidan koʻchirilgan qoʻlyozmalardir. Shubhasiz, bu kotiblar oʻz dastxatlariga oʻzlari yashagan hududlar mahalliy tiliga moslab oʻzgartirishlar kiritishgan.

Jumladan, X-XVII asrlar turkiy adabiyotning tadrijiy taraqqiyotida tojik-fors, arab tillari taʼsiridagi adabiy til areal bilan uzviy bogʻliq boʻlgan.

Boy anʼanalarga ega boʻlgan fors va arab adabiyoti, xususan Qurʼoni Karim-tafsir tili turkiy adabiy tillarga katta taʼsir koʻrsatgan. Turkiy adabiyotning va turkiy xalqlarning adabiy tilining shaklanishida, adabiy til normalarining joriy qilinishida muhim ahamiyat kasb etgan. X-XVII asr turkiy xalqlarning adabiy tillarida arabiy soʻz va iboralar nufuzli bir qatlamni tashkil etgan. Bu hol islom aqidalarining xalq hayotida katta oʻrin egalaganini koʻrsatadi.

Fors-tojik adabiy tili turkiy xalqlarning adabiy tillariga, ayniqsa ularning morfologiya va sintaksisiga unumli taʼsir koʻrsatgan. Bu holat turkiy tiling hamma yaruslarida qayd

etiladi, hattoki tovush tizimining kengayshiga ham olib kelgan.

Shubhasiz, fors-tojik adabiy tilining sintaktik qurilishi, bog'lovchilar sistemasi turkiy tillarda bog'lovchili sintaktik konstruksiyalarning taraqqiyoti jarayonida ma'lum iz qoldirgan. Turkiy adabiy tillarda keng tarqalgan forsha izofa, aniqlovchi birikmalar adabiy til vositalarini boyitgan.

Fors-tojik adabiy tilidan o'zlashtirilgan morfologik qo'shimcha va affikslar soni ko'p bo'lmasa-da, ma'lum daraja kuzatiladi. Ular asosan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida keladi, turkiy so'zlarda bu affikslarning ishtiroki kamchilikni tashkil qiladi.

Xullas, yuqorida yozma manbalardan olingan parchalar tavsiyasidan X-XIV asrlarda yuzaga kelgan umumturkiy adabiy til haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Biz ana shu tavsiya etilgan manbalar tahlili asosida o'sha davr adabiy tilining grammatik qurilishi haqida keyingi mavzularda ba'zi bir fikrlarimizni bayon etmoqchimiz

IKKINCHI BOB

X-XIV ASRLAR ADABIY TILI VA YOZMA YODGORLIKLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

2.1. Fonetik xususiyatlar. Tilshunos olimlarning ishlarida qadimgi turkiy, VII-X asrlar yozma yodgorliklaridan O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi bitiklari tilidagi fonetik xususiyatlarini XI-XIV asrlar xos asarlari tili materialini bilan qiyoslab o'rganish natijasida bu ikki davrlar tilidagi umumiy o'xshashlik bo'lishi bilan birga ayrim farqlar ham mavjudligi qayd etilganini kuzatamiz. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki, inson hayotidagi o'zgarishlar, jamiyatimizda yuz bergan har bir yangilik, umuman tarixiy taraqqiyot tilga bevosita ta'sir etadi. Bu esa yozma adabiyotda ham birma-bir aks etadi. Demak, har bir davrda adabiy til o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Buni biz ushbu davrlarga xos yozma manbalarning lisoniy tahlilida kuzatishimiz mumkin.

2.1.1. Unli fonemalar. Yozma manbalarda aks etgan adabiy til qurilishining fonetik jihatlarini qiyosiy tarzda kuzatganimizda qadimgi va eski turkiy adabiy tilga xos xususiyatlar yaqqol ko'rinadi. Bunda qadimgi tilimizda ba'zi tovushlar shakllanmagan bo'lsa, keyingi davrlarda esa yangi tovushlar shakllanganini kuzatamiz. Chunonchi, bu unli va undosh tovushlar soni va sifatida ko'rinadi. Masalan, U.Sanaqulovning doktorlik ishida keltirilgan quyidagi jadvallardan

ham buni ko‘rishimiz mumkin²⁶. Unda unlilar soni nisbatan teng kelsa-da, mazmun va qo‘llanishi jihatidan farqlanadi.

VII-X asrlarning yodgorliklari tilida qo‘llangan unli fonemalar.

Tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra		til orqa (qattiq)		til oldi (yumshoq)	
Labning ishtirokiga ko‘ra		Lablanga n	lablanmaga n	lablanga n	lablanmaga n
Tilning ko‘tarilish holatiga ko‘ra	Keng unlilar		a		ä
	O‘rta keng (yoki yarim tor unlilar	O		ö	(e)
	Tor unlilar	U	ы	Y	i

XI-XIV asrlarning yodgorliklari tilida qo‘llangan unli fonemalar

Tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra		til orqa (qattiq)		til oldi (yumshoq)	
Labning ishtirokiga ko‘ra		lablanga n	lablanmaga n	lablangan	lablanmagan
Tilning ko‘tarilish holatiga ko‘ra	Keng unlilar		a (â)		ə
	O‘rta keng (yoki yarim tor) unlilar	O		ö	(e)
	Tor unlilar	U	ы	Y	i

²⁶ .Санакулов У. Ўзбек ёзма адабий тили фонетик , морфологик меъёрларининг шаклланиши ва тараққиёти(илк босқичи).Филол.фан.док.дисс.-Т.,2007.- 252-254-бб.

Ushbu jadvallarda ikki davr, ya'ni qadimgi va eski o'zbek tilining ilk davrlari tilidagi unlilar aks etgan bo'lib, unli fonemalar son va sifat jihatidan ma'lum darajada umumiylikka va farqlarga ham egaligi yaqqol aks etgan. Jumladan, bu holatni undosh fonemalarning jadvalida ham kuzatishimiz mumkin:

Shuni ham ta'kidlash lozimki, qadimgi tilimizdagi (O'rxun-Enasoy) yozuvida fonemalarni belgilashda turli belgilardan foydalangan. Ba'zi fonemalar (variantlari bilan) 2-2ta belgilar bilan ifoda etilgan. Shu kabi uyg'ur va arab yozuvidagi XI-XVII asr turkiy tillarning fonetik sistemasini to'liq va aniq ifodalash qiyin. Chunki yozuvda izchillik saqlanmagan.

Vokalizm sistemasi juda nochor ifodalangan. Arab yozuvi 8-9 unli uchun uch belgi (harf) qo'langan. Arabcha yozuvda turkiy til unlilarini to'liq ifodalab bo'lmagan. Chunonchi, turkiy nutqdagi ä(ə), å(o), ye(e), ö(y) unli fonemalarni ifodalash uchun maxsus belgi bo'lmagan. Ba'zan yoy belgisi turkiy u (ы), (i), ye tovushlarini ifoda etgan, yoki vov(و) va yoy(ع) belgisi turkiy to'rt unlini -o, i, o, i unlini ifodalagan. Uyg'ur yozuvida esa qo'shimcha belgi oldi qator lablashgan o, i unlilar uchun maxsus harf qo'llanilgan.

Xullas, XI-XVII asr adabiy tilida qo'llangan unlilar sistemasini aniq belgilashda qadimgi va eski turkiy davrlar alifbosida ancha murakkablik mavjuddir. Ushbu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, ba'zi o'rinlarda fonemalar

orasida cho‘ziq variantlari ham uchraydi. Ba’zi yodnomalar tilida cho‘ziq unlilar ishtiroki sezilmasa-da, ba’zilarida bu holat seliladi. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘atit turk", Mahmud bin Alining "Nahjul-farodis" asarida ayrim so‘zlardagi unlilarda cho‘ziqlik xususiyati aks etgan. Masalan, ikki alif yoki alif ustiga modda belgisi qo‘yilgan. Bu hol she’riy asarlar, xususan, aruz sistemasiga asoslangan matnlarda, arab-fors metrik sistemasidagi kabi cho‘ziq va qisqa unlilarning o‘zaro almashuvi asosida tuzilgan. She’riy asarlardagi turkiy so‘zlarda uchraydigan bu hodisa ba’zi ilmiy manbalarda shartli ravishda cho‘ziq va qisqa unlilarga bo‘lingan. Ammo cho‘ziq va qisqa unlilarga bo‘linish she’r tarzda yozilmagan o‘rinlarda jiddiy bir ahamiyat berilmagan.

Hozirgi turkiy tillarda qayd qilingan fonetik hodisalar, masalan, unlilar ohangdoshligi, eliziya, unlilarning o‘zgarishi kabilar X-XVII asrlar adabiy tillarda ham uchraydi.

2.1.2.Undosh fonemalar. X-XIV asrlardagi umumturkiy adabiy tillarda qo‘llangan undoshlar sistemasi ham qadimgi turkiy holatdan farqlanadi. Bu davrlarda ham bir qator yangi fonemalar adabiy tilga kirib kelgan va ba’zilari iste’moldan chiqqandir yoki qo‘llanish doirasi cheklangandir. Bu davr adabiy tildagi undoshlar manbalarda arab alifbosida mavjud bo‘lgan undosh belgilari orqali berilgan. Arab grafikasiga forsiy va turkiy qo‘shimcha diakretik belgilar kiritilgan. Bu qo‘shimcha diakretik belgili harflar asosan forsiy va turkiy

soʻzlarda ishlatilgan. Arab yozuvi qoidasiga koʻra qoʻyilish lozim boʻlgan harflardagi nuqtalar koʻp oʻrinlarda berilmagan. Oʻzlashtirilgan soʻzlar bilan birga bir qator undoshlar turkiy tillarda qoʻllana boshlangan. Ammo bu undoshlar turkiy tillar konsonantizm sistemasida alohida xususiyatga ega boʻlgan. Bu oʻrinda **~(ayn)j, z, v, t, h, x, s, a, t, z, e** kabi bir qator undoshlarni qayd qilish lozim boʻladi.

Shuni aytish joizki, sporadik hollarda **v, f, x** undoshlari asl turkiy soʻzlar bilan ham ishlatilgan. Bunday holatlarning paydo boʻlishi turkiy tillardagi portlovchi undoshlarning spirantizatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Oʻzlashtirilgan kalimalar bilan birga soʻz oxirida yuqorida keltirilgan yangi tovushlar ham qoʻllanadi.

Avvalari soʻz boshida, soʻz oʻrtasida, boshqacha aytganda, auslaut va inlautda kelgan undoshlar soʻz oxirida ham ishlatiladi. Bu hodisa **p, s, r, v, e** undoshlariga oiddir. Shunindek **d**-undoshi asl turkiy va oʻzlashmalarda ham qoʻllanilgan. Bu holat ogʻuz tillardan farqlochi belgilardan biri sanaladi. Umuman, qadimgi turkiy til bilan, uning keyingi bosqichi sanalgan eski turkiy til davri adabiy tiliga xos undoshlar umumiylikka ega boʻlishi bilan birlikda farq qiladigan tomonlar mavjuddir. Buni biz, yuqorida qayd

etilgan ilmiy ishlarda²⁷ ham kuzatishimiz mumkin. Bu ishlarda o'sha davr adabiy tilini o'zigacha aks ettirgan asarlardan tanlanib, ular tilidagi fonetik xususiyatlar tahlil etilgan. Shu asosda unli va unddosh fonemalarining jadvallari tuzilgan. Shundan biz ushbu ishimizda ba'zilarini tavsiya etishni lozim topdik. Yuqorida unlilar jadvali aks etganidek quyida undoshlar jadvalini keltirdik. Bu jadvalning biri qadimgi umumturkiy til obidalarida qo'llangan undoshlar berilgan bo'lsa ikkinchisi eski turkiy til davriga xosdir.

VII-X asrlarning yodgorliklari tilida qo'llangan undosh fonemalar

Ovozning ishtiroki- ga ko‘ra	paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra		Til oldi lab tovushlari	til oldi	til o‘rta	yaqin til orqa	chuqur til orqa
	Aytilish usuliga ko‘ra						
Jarang- siz	Portlovchi		R	t	k	q(q)	
	Sirg‘aluvchi			s, ş			
	Affrikat			č (ch)			
Jarang- li	Portlovchi		B	d		g	γ(g‘)
	Sirg‘aluvchi			δ (dz)	(j)		
	Affrikat						
Sonorlar	portlovchi burun		M	n		(ŋ- hg‘)	Һ (ng)
	sirg‘aluvchi	Yon		l			
		titroq			r		

²⁷. Санакулов У. Ўзбек ёзма адабий тили фонетик , морфологик меъёрларининг шаклланиши ва тараққиёти(илк босқичи).Филол.фан.док.дисс.-Т.2007. - 252-254-бб.

XI-XIV asrlar yodgorliklari tilida qoʻllangan undosh fonemalar

ovozning ishtirokiga koʻra	paydo boʻlish oʻrniga koʻra		til oldi lab tovushlari	til oldi	til oʻrta	yaqin til orqa	chuqur til orqa
	aytilish usuliga koʻra						
Jarangsiz	portlovchi		P	t		k	q
	sirgʻaluvchi		F	s, sh		h	x
	affrikat				ch		
Jarangli	portlovchi		B	d		g	gʻ
	sirgʻaluvchi		V	(δ-dz)			
	affrikat				ж		
Sonorlar	portlovchi burun		M	n		ngʻ(η)	ng(н)
	sirgʻaluvchi	yon		l	y		
		titroq		r			

Bu fonemalarning soʻz tarkibida qoʻllanishi quyidagicha kuzatilishi mumkin. Chunonchi, koʻpchilik soʻzlarning oʻzak strukturasi yopiq boʻgʻinni tashkil qiladi. Oʻzaklarda undoshlarning **vc**, **cvc** tarzda qoʻllanishi ustunlik qiladi. Affikslar uchun **cv**, **cvc** tipda qoʻllanishi xarakterlidir. Soʻz boshida ikki undoshning kelishi qayd qilinmaydi. Soʻz oxirida esa turkiy soʻzlar portlovchi undoshlardan **b**, **t**, **k** fonemalari va kamroq sirgaluvchi **s**, **j** fonemalar ham ishlatilgan. Soʻz boshida sonantlardan **m** **p** va soʻz oxirida boshqa undoshlarning paydo boʻlishi arab, fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarning nufuzining oshishi bilan izohlanadi. Soʻz boshi va soʻz oʻrtasida boshqa barcha undoshlarning

qo'llanishi kuzatiladi. Singarmonizm qonuni ta'sirida affiks tarkibidagi unli fonemalar almashinuvidan tashqari affikslarda kelgan avvalgi jarangli/jarangsiz undoshlar progressiv assimilyasiya qonuniyati asosida, almashinuv hodisasi ro'y beradi. Ayrim hollardagina unlilarning qo'shilishi bilan o'zakning oxirgi tovush jarangli holatga aylanadi.

Xullas, kuzatilgan davr tilida qadimgi turkiy va eski turkiy davrlar tilining fonetik xususiyatlari tahlida har ikkala bosqichda ham, umumiylik, ya'ni o'xshashlik va ham o'ziga xoslik, ya'ni farq qiladigan tomonlar mavjud bo'lib, bu til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa sanaladi.

2.2. Morfologik xususiyatlar. Ma'lumki, o'zbek tili boshqa turkiy tillar kabi agglyutinativ tipli tillarga kiradi. Ko'pchilik o'zak va affiks morfemalar X-XIV asrlar adabiy tillarida bo'g'in bilan mos keladi. Tarixan bular tarkibi ikki, uch morfemalardan tashkil topgan. So'z bir o'zakli morfemadan tarkib bo'lishi mumkin. Oddiy yoki murakkab o'zakdan yoki bir nechta affiks morfemalar bilan yasalgan bo'ladi. O'zak so'zlar quyidagicha turkumlarga ajratiladi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish va yordamchsi so'z turkumlari kabi.

Bular uchun ajratuvchi morfologik belgilar ko'pincha qat'iy bo'lmagan, asosan sintaktik kontekstda differentsiatsiya qilingan. Taqlidiy so'zlar (ideofanlar), sifat va

ravishlar oralig'ida joylashgan. Yodamchi so'zlar esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov kabi o'ziga xos guruhlarga bo'linadi.

2.2.1. Ot so'z turkumi. Ilmiy manbalarda X-XVII asrlar yodgorliklari tilida ot so'z turkumiga xos grammatik xususiyatlar ko'plik, egalik, kelishik kabi ma'nolarini ifodalovchi affiks morfemalar paradigmalari asosida qayd etiladi. Qayd etilgan nom bilan atalgan har qaysi paradigma kategoriyani tashkil etadi. Masalan, ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalari kabi. Bu qayd etilgan kategoriyaga xos qo'shimchalar o'zak yoki negizga qo'shilganda asosan ma'lum bir qonuniy tartib qo'llaniladi: avval ko'plik, so'ng egalik va keyin kelishik qo'shimchalari kelishigi qonuniydir. Bu qo'shimchalar ot turkumiga xos bo'lsa-da, boshqa turkumdagi so'zlar bilan ham qo'llanilishi mumkin. Ammo boshqa turkumdagi so'zlarga qo'shilganda ular substantivlashadi, ya'ni ot vazifasiga ko'chadi.

2.2.2. Otlarda ko'plik ma'nosi. Qayd etilgan davr tilida, ya'ni eski o'zbek tilida ko'plik kategoriyasining grammatik vositasi asosan-lar/lər qo'shimchasi hisoblangan. Bu affiks ko'plikni ko'rsatish uchun ham, hamda noaniq-umumlashgan ko'plikni ifodalash uchun qo'llangan. Bu qo'shimcha bir qator grammatik ma'nolar bilan ham qo'llangan: erkalash, kuchaytirish, birgalik, jamlik, taxmin kabi boshqa ma'nolar ham kasb etgan. Fe'l kategoriyasidagi ko'plikni birinchi va

ikkinchi shaxsi uchun maxsus affikslar ishlatilgan, shu kabi uchinchi shaxs ko‘pligida – **lar/ lər** affiksi ham qo‘llangan.

Ushbu o‘rinda qayd etish lozimki, ilmiy manbalarda qadimgi turkiy tilning ilk davrlarida ko‘plik ma’nosini ifodalashda -t shaklidagi qo‘shimcha ham qo‘llangan, keyingi davrlarida iste’moldan chiqqan, hatto O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ham deyarli qo‘llanilmaydi, to‘g‘rirog‘i sanoqli so‘zlar tarkibidagina uchraydi²⁸. Xuddi shunday XI asr obidalar tilida ayrim so‘zlarda uchraydi. Masalan, “Devoni lug‘atit turk” asarida ham qadimgi **tegin**(shahzoda) so‘zining ko‘pligi **tegit** shaklida qo‘llanganligi izohlanadi²⁹.

Shuningdek, turkiy tillarning ma’lum bir davrlaridan boshlab -an/ən shakldagi qo‘shimcha ham ko‘plik ma’nosida qo‘llanganli qayd etiladi. Bu qo‘shimcha qadimgi davrlarda ham, eski turkiy til va eski o‘zbek tili davrlarida ham **eran**, **o‘g‘lan** kabi so‘zlar tarkibida uchrashi aytiladi: O‘g‘lan irg‘ishti-bolalar yig‘lashdi (DLT); Bu so‘zlar tarkibidagi **–an** qo‘shimchasi **–lar** ma’nosida qo‘llangan(eran-erlar, o‘g‘lan-o‘g‘illar kabi). Ammo Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, XI asr tilida ko‘plik ko‘rsatkichi faqat **–lar/–lər** qo‘shimchasi sanalgan. Qdimgi**–an** qo‘shimchasi esa **eran**, **o‘g‘lan** kabi so‘zlar tarkibida odatdan tashqari holda qo‘llangan³⁰. Bu

²⁸. Санакулов У. Ўзбек ёзма адабий тили фонетик , морфологик меъёрларининг шаклланиши ва тараққиёти(илк босқичи).Филол.фан.док.дисс. автореф.-Т., 2007. -17-б.

²⁹. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси.-Т.: Ўқитувчи, 1973. - 29-б.

³⁰. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1973. -30-б.

qo‘shimcha “Qutadg‘u bilig” da **turkan** so‘zining tarkibida ham uchraydi:

Tirilsuni turkan kut min yln
Ialinsuni kormaz karak ajun.
Bayat berdi davlat ey turkan kut
Ann shukri klgu ukb min at.

(Namangan qo‘lyozmasi, 10). Ushbu so‘zlar XI asrdan keyingi davr yodgorliklarida ham uchrasa-da, ular birlik shakldagi so‘zlar sanaladi va ko‘pligi **-lar/-lär** qo‘shimchasi qo‘shilgandagina anlashiladi: eranlar, o‘g‘lonlar yoki O‘g‘lonlari qo‘rqtilar (Rabg‘uziy, 41a) kabi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, o‘sha davr tuki, jumladan eski o‘zbek tilining leksik qatlamida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ancha keng joy olgan edi. Bu so‘zlarning birlik va ko‘plik shakllari ham saqlangan bo‘lgan. Masalan, **hol, xalq (xoliqa), olim, ajib** kabi so‘zlarning **ko‘pligi ahvol, xaloyiq, ulamo, ajoyib** shakllarda aks etgan. Bu so‘zlar aynan shu ma’nolarda yozma manbalar qo‘llanilgan. Lekin bu kabi ko‘plik shakllari turkiy tilga xos emas. Bunday shakllar faqat o‘zlashgan arabcha so‘zlardagina qo‘llanilgan.

Xullas, X-XIV asrlardagi umumturkiy adabiy tildagi ko‘plik kategoriyasining asosiy grammatik belgisi **--lar/-lär** qo‘shimchasi hisoblangan.

2.2.3. Otlarda egalik kategoriyasi. X-XIV asrlardagi umumturkiy adabiy tildagi egalik ma'nolari maxsus qo'shimchalar orqali ifodalangan. Ular ba'zi asarlarda singarmonizm qonuni talabi asosida qo'llanib, fonetik variantlarga ham ega bo'lishgan. Bu xususiyat asosida yuqorida tilga olingan olimlarning ilmiy manbalarda egalik qo'shimchalari quyidagicha belgilangan.

Birlik shakllari

1- shaxs -m (-ым/-im, -um/-ym) - akam, qyzym/ishim, og'lum/kõzyım;

2- shaxs -ң (-ың/-iң, -uң/-yң) - akaң (qyzың/ishiң, og'luң /kõzyң);

3- shaxs -сы/-si , -ы/-i, - qyzы/ishi, babasy/bibisi kabi.

Ko'plik shakllari

1-shaxs-мыз/miz,-muz/myz-akamiz,qyzымыз/ishимыз, -umuz/-ymyz- og'lumuz/kõzyмыз;

2-shaxs-ңыз/ñiz,-ñuz/ñyz-ataңыз-qyzыңыз/ishiңыз, -ыңыз/-iңыз, -uңыз/-yңыз- og'luңыз /kõzyңыз;

3-shaxs-лары/-lari-qyzлары,akalari kabi.

Turkiy tillarda, jumladan eski o'zbek tilida ham egalik ma'nosi asosan qayd etilgan qo'shimchalar orqali, ya'ni morfologik usul bilan anglashilgan. Ba'zan egalik ma'nosi qaratqich kelishigi bilan ham anglashilgan. Bunday holni qadimgi yodgorliklarda uchratish mumkin. Jumladan, "Devoni lug'atit turk"da ham uchraydi: Qolmish tovar azining-qolgan tovar o'zganing; Bu ot saning-mu? Bu hol

keyingi davrdagi ba'zi yodgorliklarda uchraydi. Masalan, Bu qamug'kimning turur? Aydi:bu o'g'lonning turur.O'g'lan kimning turur? Aydi:Ibrohimning (Rabg'uziy.31 b.)kabi.

Ushbu misoldagi "tovar o'zganing","ot saning-mu", "qamug'-kimning turur", "Ibrohimning" so'zlaridagi qaratqich kelishigiga xos bo'lgan **-ning** qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan **-niki** qo'shimchasi ma'nosiga teng. Bu affiks aslida **-ning+ki=-niki** tarzida shakllangan. Egalik ma'nosining bu usulda ifodalanishi abstrak egalik deb yuritiladi.

Xullas, ot so'z turkumida egalik ma'nosi maxsus qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Ularning yig'indisi otlarga xos kategoriyasini tashkil etadi.

2.3.4.Otlarda kelishik kategoriyalari. X-XIV asrlar adabiy tili yozma yodgorliklarida qo'llanilgan kelishiklar son jihatdan hozirgi tilimizdagidek asosan farqlanmaydi, ularda ham oltita kelishik mavjud: 1.Bosh kelishik. 2.Qaratqich kelishigi. 3. Tushum kelishigi. 4.Jo'nalish kelishigi. 5.O'rin-payt kelishigi. 6.Chiqish kelishigi kabi. Ularning har qaysisi (bosh kelishigidan tashqari) o'ziga xos grammatik vositalari(qo'shimchalari)ga ega. Lekin ular hozirgi tilimizdagidan fonetik variantlariga egaligi bilan farqlanadi. Shu kabi ba'zi bir qadimiy tilga xos shakllari bilan ham o'ziga xos tomonlari bor.

Qadimgi turkiy tilning ilk davrlarida ayrim qo'shimchalar o'zlarining kelishiklik grammatik ma'nolari

bilan birga soʻz yasovchi affikslar kabi xususiyatlariga ham ega boʻlishgan. Chunonchi, **tashqari, ichqari, yuqori, soʻngra, nari, beri, ichra** kabi hozirgi tilimizdagi ravish yoki koʻmakchi turkumidagi kiruvchi soʻzlar tarkibidagi **qari (qori),-ra,-ri** qoʻshimchalar shular jumlasidandir. Qadimgi turkiy tillarning ilk davrlari **-qaru/karu, -gʻaru/garu, -ra, -ru** kabi qoʻshimchalari joʻnalish kelishigining grammatik vositalari sanalgan. Shu kabi hozirgi tilimizdagi **qishin, yozin** kabi soʻzlar tarkibidagi **-in** qoʻshimchasi turkiy tillarning ilk davrlariga xos vosita kelishigining grammatik belgisidir. Bu qoʻshimcha qadimgi yodgorliklarda **- ын/in,-un/yn** variantlarda qoʻllangan. Bu kabi holatlar X-XIV asrlar adabiy tili yozma yodgorliklarida uchraydi. Shuningdek, tushum keligining qadimgi **- ыгʻ/ig, -ugʻ/yg** kabi shakllarining qoʻllanilishi bilan ham farqlanadi.

Bosh kelishik. Bu kelishik barcha davrlar tilida ham bir xil shaklda boʻlgan, oʻzining morfologik koʻrsatkichi, yaʼni maxsus qoʻshimchaga ega emas va gapda asosan ega vazifasida keladi.

Qaratqich kelishigi. Yuqorida XI-XIV asrlar adabiy tili yozma yodgorliklaridan tavsiya etilgan matnlarda qaratqich kelishigining qoʻshimchalari **- ның/niң, - ың/iң, - уң/yң**, shakllarda qoʻllanilganini kuzatishimiz mumkin. Baʼzi soʻzlarda **-** qaratqich kelishigining maʼnosi 1-shaxs egalikning **- im/um** shaklidagi qoʻshimchasi orqali ham

anglashilgan. Bu hol asosan kishilik olmoshining men va biz (menim, bizim kabi) shakllarida kuzatiladi. Qaratqich kelishigining - **ның/ niң** shakllari barcha davrlarda asosiy ko'rsatkichi sifatida faol qo'llangan, -**ың/iң,-уң/үң** shakllari esa nisbatan kam uchraydi. Barcha davrlarda ham, hozir ham qaratqich kelishigi belgili va belgisiz holatda ham qo'llanilishi mumkin. Belgisiz qo'llangan hollarda qaralmishning qaratqichga umumiy xosligi(shaxsga, o'ringa, paytga munosabati) ifodalangan bo'ladi. Masalan,...bug'doy boshi; Ey ko'nglum ovunchasi (Qisas ar Rabg'uziy), Muso payg'ambar qavmi (Nahjul Farodis) kabi.

Bunday holatni hamisha qo'llab bo'lmaydi. Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qo'llaniladi: a)qaratqich olmoshlar bilan, xususan, kishilik olmoshlari bilan kelganda (mening, sening, uning, buning, aning, bizning, sizning, ularning, alarning, bularning kabi);

b) sifat, son, sifatdosh kabi so'zlar bilan kelganda;

v) qaralmish sifat, son, va fe'lning grammatik formalaridan bo'lganda;

g) qaratqich bilan qaralmish o'rtasida so'z bo'lganda;

d) qaratqich atoqli otdan bo'lganda va h. Qaratqich kelishigidagi so'z gapda asosan aniqlovchi vazifasida keladi.

Tushum kelishigi. O'zbek tilida qadimdan tushum kelishigining ma'nosi ham maxsus qo'shimchalar orqali ifodalanib kelingan. Bu kelishikning qo'shimchalari quyid

etganimizdek ba'zi shakllari bilangina hozirgi tilimizdan farqlanadi, anglatgan ma'no va vazifalari esa farqlanmaydi. Buni yuqorida qayd etilgan eski turkiy yodgorliklar parchalarda ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, yozma asarlarda **-ny/ni** shakli qadimdan, umuman, barcha davrlarda faol qo'llangan, shu kabi nisbatan kam bo'lsa-da **-n, -y/i** shakllari ham mavjud bo'lgan. Masalan, **Ауығ-қылыңчымыны** kenty ýkynyp erdi-Yomon qilmishimdan o'zumni o'zum koyigan edim. (Qad.Uyg'), Kÿryb sævdi Hãžib bu **Aytodыны**-Hojib bu Oyto'ldini ko'rib sevdi (QB), Chaq ol **atны** tutg'yl-Xuddi o'sha otni tutg'il (MQ), Mālym tavağым, **altunumны, kÿmyshymni, yaqutumны, javharyны** qamug'chyğ'aylaryğ'a bergäymen (Rabg'), Inisi æchisin bilmæs ærti, og'ly **qанын** bilmæs ærti - Ukasi akasini bilmas edi, o'g'li otasini bilmas edi (O'rx.En.), Vazir tonын чықарди (Taf.), Aniң atasын ÿldÿryb (Rabg'), Qaqын tutы Ilik kÿr,**O'gdymishi** - Ko'r, Ilik O'gdulmishni o'ziga yaqin tutdi (QB)., Salayын ÿzyمی ÿzgə adyāra (MN), Surды мәni qoyумы - Mening **qo'ylarimni** haydab ketdi. (MQ) kabi. Hozirgi tilimizda tushum kelishigining **-ni** shakli asosiy belgi sanalib, faol qo'llanadi, **-n, -y/i** shakllarining esa iste'mol doirasi cheklangan holda, ba'zan badiiy asarlarda va dialektlarda uchraydi.

Tushum kelishigining - g'/g (o'zak - negizdagi undoshlardan so'ng - ыg'/ig, lablangan tovushlar ta'sirida -

ug‘/yg) shakllari qadimgi turkiy tilda keng iste‘molda bo‘lgan: **Barsyg‘**, **kÿækmægik** ÿlyrmədim –Qoplonni, bo‘g‘uni o‘ldirmadim (O‘rx.En.)., Ulug‘ы tigin bu **savyg‘**əshitib-Katta shahzoda bu so‘zni eshitib (Qad.uyg‘.), Ilig **begig**, **qatunug‘**... ÿgləntydilər-Ilig bekni, xotinini hushiga keltirdilar(Qad.uyg‘.). Bu shakllar eski turkiy yozma yodgorliklarida ham uchraydi, lekin XII-XIII asrlardan so‘ng asosan iste‘moldan chiqqan: Ər **ыshyg‘**ыrtadı –kishi ishni istadi (MK), Ol sÿzyg aıladı-u so‘zni tushundi (MK), **Atyg‘**ÿgsə, yÿgryr **ucharyg‘**yətər-otni parvarish qilsang, tez chopadi va ucharni ham qoldiradi (QB).

Qadimgi va eski turkiy til davrlarida ham tushum kelishigi ma‘nosi hozirgi tilimizdagidek belgili va belgisiz anglashilgan. Masalan, Bangy tash toqytdым-mangu tosh qo‘ydim (O‘rx.Ens.)., Tətry saqынch tarqatg‘ыл-yomon xayollarni qo‘ygin (Qad.uyg‘.).,Turg‘ыл, **ne‘matlar** yegil. (Rabg‘.) kabilar.

Tushum kelishigi atoqli otlar, sifat, son, kishilik olmoshlari, sifatdosh, harakat nomi kabi so‘zlar bilan kelganda belgili bo‘ladi.

Tushum kelishigining –ni qo‘shimchasi hozirgi og‘zaki-so‘zlashuvda va dialektlarda bo‘lgani kabi o‘tmish yodgorliklarida ham qaratqich kelishigining qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanib kelish hollari mavjud. Bu holatni yuqorida keltirilgan parchalarda kuzatish mumkin.

Jo‘nalish kelishigi. O‘tmish yodgorliklarida jo‘nalish kelishigining **-qa/kə, -g‘a/gə, -a/ə, -g‘aru/gəru, -qaru/kəry –ra/rə, -ru /ry** kabi shakllardagi qo‘shimchalari uchraydi. Qayd etganimizdek, **-g‘aru/gəry, -qaru/kəry –ra/rə, -ru/ry** kabi shakllari ilk qadimgi davrlar tiliga xos. Bu shakldagi vositalar O‘rxun-Enasoy bitiklari davridayoq iste‘moldan chiqqan bo‘lgan. Lekin bu vositalar ba‘zi so‘zlar tarkibida qo‘llanib kelingan va jo‘nalish kelishigining ma‘nosini ifodalaganini kuzatish mumkin: **Og‘uzg‘aru** sy tashyqdyмыz - o‘g‘uzlarga tomon qo‘shin tordik (O‘rx.Ens.), Yavlaq **yirgəry** barırmız- yomon yerga boryapmız (Qad.uyg‘.), Qyşh **yayg‘aru** suvlanur-qışh yozga shivirlaydi (MK), Ag‘ulug‘oqyn **yyrəkrə** urup- zaharli o‘qini yurakka urib (Qad.uyg‘.), Uni **bashra** qaqty-uni boshiga urdi (MK), Əbimry barı (Qad.uyg‘.), tabaru keldi-menga tomon keldi (MK).

Jo‘nalish kelishigining **-qa/kə, -g‘a/gə, -a/ə** qo‘shimchalari barcha davr yozma yodgorliklari faol qo‘llangan. Lekin **-a/ə** shakli XII-XIII asrlardan so‘ng asosan she‘riy asarlarda uchraydi, hozirgi tilimizda sheva materiallarida va ba‘zi sheriylar asarlarda kuzatish mumkin.

O‘rin-payt kelishigi. Ushbu kelishik ma‘nosi hamma davrlarda ham **–da/də, -ta/tə** shakllardagi qo‘shimcha orqali anglashilgan. Qadimgi tilda bu shakllarda qo‘llanish o‘rniga qarab ma‘lum bir tartib saqlangan. O‘rxun-Enasoy bitiklarida

l, n, m undoshlari bilan tugagan soʻzlarga jaransiz **-ta/tə** variantlari qoʻllanilgan. Masalan, **kÿltə, yolta, qagʻanta, budunta, budunımta, əlimtə** kabi holda kelgan. Boshqa holda esa **-da/də** shaklli qoʻllanilgan.

XI asr yozma yodgorliklarida, jumladan Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asarlarida oʻrin - payt kelishigi qoʻshimchasi variantlarining qoʻllanilishida qatʻiy prinsip saqlanmagan. Ammo bu davrlarda qadimgi turkiy til bitiklaridan farq qilgan holda variantlarning qoʻllanishida tovushlar uygʻunligi, yaʼni singarmonizm prinsipiga asoslangan holda unli va jaranli undosh bilan tugagan soʻzlarga asosan - **da/də** shakli qoʻllanilgan, jarangsiz undosh bilan kelgan oʻzak - negizga esa asosan **-ta/tə** variantlari qoʻshilgan. Masalan, **kÿñıldə, ajunda, tãnda kimdə, yagʻuda, ichkydə, kishidə, evdə, bəgdə, chыqarda, bāshda, ishtə, saqishta, sÿlmishtə, ulugʻta, əmgəktə** kabilar.

Baʼzi yozma yodgorliklarda oʻrin-payt kelishigining qoʻshimchasi oldidan 3-shaxs egalik qoʻshimchasi kelganda orada bitta **n** undoshi orttirilgan holda qoʻllanilganini kuzatish mumkin. Jumladan, qadimgi bitiklar tilida ham bu hol kuzatiladi. Masalan, yiti **yashыnta** - yetti yoshida (Oʻrx.Yens.), kishi **ashunыnta** - kishilik dunyosida (Qad.uygʻ.), **tilinta** yorыnty-tilida gapirdi (QB), bəg **qысыgʻыnda** - bek qisuvda (MK), ulus **tashыnda** (Taf.),

Yâ'qub **qoynında**, tag'**bashında**, qol **ichində** (Rabg'.) kabi. Bu hol ko'proq XIII-XIV asrlarga xos yozma yodgorliklar uchun xarakterlidir.

Ba'zan o'rin - payt kelishigining qo'shimchasi jo'nalish kelishigining vositasi o'rnida qo'llanilgan hollarni uchratish mumkin. Bu hol qadimgi bitiklar tilida ham mavjud. Masalan, Otru əstyp **ichintə** bəklədilər-so'ng maxsus binoga bekitdilar (Qad.uyg'.), Ər **ərdənimdə** bəykmədim, qırq **yashymda** adygyldym - botirlik shon - shavkatimga to'ymadim (O'rx. Ens.), Sizlar anda **təgmishtə** men Lotny kysəm erdi (Rabg'.) kabi.

Chiqish kelishigi. Turkiy tillarda ushbu kelishik vositasi nisbatan boshqa kelishik affikslaridan keyinroq shakllangan bo'lib, ma'lum davrlargacha chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rnida ham o'rin-payt kelishigi vositasi qo'llanilgan. Masalan, Sizdə adygyldym -sizdan ayrildim (O'rx.Ens.), Tyrgəs qag'anta kyyg kəldi - Turgash hoqondan ayg'oqchi keldi (O'rx.Ens.). Lekin O'rxun-Enasoy bitiklarida ba'zi so'zlarda chiqish kelishigining - tan shakli uchrayd. Shuningdek, qadimgi uyg'ur yozma yodgorliklarida ham chiqish kelishigining vositasi shakllanganligini kuzatish mumkin.³¹ Ammo ko'pgina asarlarda, ayniqsa, "Qutadg'u bilig"da chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rnida o'rin - payt kelishigi qo'shimchasi qo'llangan. Lekin bu asarda ham ko'p

³¹ .Qarang: Абдурахмонов F., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, 56-б.

hollarda -da''(tanvin) holda qo'llangan³² Chiqish kelishigi ma'nosida o'rin-payt kelishigi vositasi qo'llanishi eski o'zbek tilidagi XIII-XIV asrlarga xos yozma yodgorliklar uchun xarakterlidir. Chiqish kelishigining - dan/dən, - tan/tən variantlari XIV asrdan oldingi davrlarga xos yozma manbalarda kuzatilgan. Jumladan, "Devoni lug'otit turk"da ham uchraydi. Ammo qayd etganimizdek, bu shakllar juda kam qo'llanilgan³³. Bu davrda, ayniqsa keyingi asrlarda - **дын/дин**, - **тын/ тин** variantlari faol qo'llanilgan. Ushbu kelishikning - **dun/dын**, **tun /tын** variantlari turkiy tillarda mavjud bo'lgan singarmonizm qonuni talabi asosida shakllangan. Xullas, chiqish kelishigining ma'nosi o'tmish yozma manbalarida - **da/də**, - **ta/tə**, -**dan/dən**, - **tan/tən**, - **дын/дин**, -**тын/тин**, - **dun/dын**, - **tun/ тын** kabi shakllarda uchraydi. Chiqish kelishigining bu kabi fonetik variantlari ma'lum tartib - qoida asosida qo'llanilishi lozim bo'lgan³⁴. Ammo yozma yodgorliklarda bu tartibga to'liq rioya qilinmaganligini ham kuzatish mumkin.

Vosita kelishigi. Ushbu kelishikning morfologik ko'rsatkichi - n shaklda bo'lib, so'z o'zagi - negizi undosh bilan tugashiga va singarmonizm talabiga ko'ra - **ын/ин**, - **ун/ын** kabi fonetik variantlarga ega bo'lgan. Vosita kelishigining taraqqiyoti ancha qadimgi davrlarga borib

³² .Qarang: Sanaqulov U. Ko'rsatilgan manba, 125-6.

³³ . Qarang: Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. Ko'rsatilgan manba, 54-59-бетлар.

³⁴ . Qarang: Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. Ko'rsatilgan manba, 57-бет.

taqaladi. Hatto bu kelishik O'rxun- Enasoy bitiklaridan oldingi davarlar tiliga xos bo'lgan. Bu kelishikning qo'shimchasi qisman qadimgi bitiklarda va "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'otit turk" asarlarida ham iste'molda bo'lgan. Masalan, Az tutuqyg'əligin tutdı-azlar tutqini qo'li bilan tutdi (O'rx.Ens.), Kyzyn kyryp, qulqaqyn əsidip, tilin sýzləp, əlgin sýnyp, adaqyn yoryp, yrkə ýzlýksiz əmgətirbiz- ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, til bilan so'zlab, qo'l bilan ushlab ko'rib, oyoqda yurib, ilgaridan uzluksiz urintirib kelamiz (Qad.uyg'.), Bashında kəchýrmish, kýzyn kýrmish ər-boshidan kechirgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi (QB), Biligin ulug'luqqa təgdim (MK) kabilar.

Ushbu kelishik XIII-XIV asrlarga xos asarlarda ham uchraydi. Masalan, Anny kishilər kýzin kýrgən bor-mu? Axshåmyn karvån bir yərgə yətti (Saroyi), Kənə tashqarun qalmasun (O'N) kabi. Vosita kelishigining bu qo'shimchasi keyingi davrlar yodgorliklarida uchrasa-da, o'zining kelishiklik ma'nosini yo'qo'tgandir. Ular hozirgi tilimizda qishin, yozin, ertan, kechin, kunun, tunun kabi ravishlar tarkibida qo'llaniladi.

Eski turkiy yozma adabiy til yodgorliklar qo'llanilgan otlarga xos bo'lgan ushbu grammatik xusuiyatlarni o'rganish masalasi ancha keng masala. Bu borada aytiladigan fikrlar ushbu risolaning so'nggi qismlarida davom etadi.

UMUMIY XULOSALAR

Ushbu monografiyada aytilgan fiklar bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelish mumkin.

1. X-XIV asrlar adabiy tili va yozma yodgorliklarning lisoniy xususiyatlari bo'yicha, ayniqsa, hududiy jihatdan tavsiflab va davrlashtirib o'rganish, dialektal asosini belgilash o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda hozir ham dolzarb masalalardan biri sanaladi.

2. Ma'lumki, tarixiy ilmiy manbalarda turkiy yodgorliklar tili yaratilgan o'rniga qarab nomlanib kelingan va o'sha hududga xos adabiy tilni aks ettirgan deb qaralgan. Chunonchi, bular qoraxoniylar davridagi adabiy til, qoraxoniylar - uyg'ur tili, Sharqiy turkiy til, chigatoy tili, o'rta turk tili, xorazmcha turkiy til, qarluq - xorazmiy tili, o'g'uz - qipchoq tili, Oltin O'rda tili, Xorazm-Oltin O'rda tili (XIII-XIV asrlarga nisbatan) va hokazolar.

Nomlari qayd etilgan ushbu hududiy adabiy tillar hozirgi zamon turkiy tillarning deyarli hamma guruhlariga bevosita aloqadordir. XI-XIV adabiy tillarning shakllanish jarayoni ko'p asrlar (tahminan ikki asr) avval boshlangan bo'lib, mazkur davrga kelganda u katta so'z boyligiga ega bo'lib, ma'lum bir adabiy qolipga tushgan edi. Xususan, til qurilishining leksik qatlami, jumladan, morfologik va sintaktik jihatdan belgilangan qat'iy normalarga ega bo'lgan adabiy til sistemasi yuzaga kelgan edi. XV asrgacha mavjud bo'lgan bu hududiy adabiy tillarga asosan akademik A.N.Samoylovichning tasnifidagi janubiy-sharqiy, shimoliy-sharqiy gruppalar tillari asos bo'lgan. Bulardan tashqari, o'g'uz - turkman, qipchoq guruhlarining bevosita ishtiroki muhim rol o'ynagan.

XI-XVII asr adabiy tillarning tarqalish doirasi, ya'ni hududi nihoyatda keng bo'lgan. Jumladan, hudud Koshgar, Xuroson, Xorazm, Sirdaryo, Amudaryo, Volga bo'ylari Oltin O'rda, Qrim, Misr, Shom kabi o'lkalarni qamrab olgan edi. Biz ushbu o'rinda Qoraxoniylar sulolasining yuzaga kelishi, bu sulola bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan adabiy markaz, adabiy til va bu tilda yaratilgan yozma yodgorliklarning lingvistik jihatdan o'rganishi masalasi bo'yicha umumiy ma'lumotlarni qayd etishni lozim topdik. Zero bu sulola davri adabiy tili bilan Movarounnahrda vujudga kelgan umumturkiy, jumladan, eski o'zbek tilining (yirik komponentini tashkil etgan qorluq) adabiy tili bilan bog'liqdir.

3. Qaraxoniylar sulolasining namoyandasi Abdulkarim Satuk Bug'ra Qoraxon davridan Xasan bin Arslon davrlarigacha o'tgan davrlarda, ya'ni Qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi hududlarda ilm-madaniyat sohasida ko'pgina ishlar amalga oshgan edi. Jumladan, an'anaviy sulolaviy tarixnavislik davom etgan, tilshunoslik va adabiy muhit rivojlangan. Natijada Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Husayn al-Almai, Ahmad Yassaviy, Jamol Qorun kabi bir qancha mashhur ijodkorlar yetishib chiqdilar.

Darhaqiqat, Qoraxoniylar davrida "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'otit-turk", "Kitobu javohirin-nahvi fi-lug'atit-turki", "Tarixi Koshg'ar", Qur'oni Karim tafsirlari kabi mashhur asarlar yaratilgan edi. Turkiy xalqlarning tasavvuf asoschisi Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, Jamol Qorun 1292 yilda "Mulhaqatus-sura" asarini yaratgan. Ushbu asarlar shubhasiz o'sha davrda yuzaga kelgan, ya'ni Qoraxoniylar adabiy markazidagi adabiy tilda yaratilgandir.

4. Qoraxoniylar davridagi adabiy tilning yorqin namunasi "Qutadgʻu bilig" tilida oʻz aksini qoldirgan. Bu asar asosan oʻsha davr adabiy tili taʼsirida yozilgan. Chunki "Turkistonda hech kim Bugʻraxon tilida bu kitobdan yaxshiroq asar yozmagan"³⁵. Bugʻraxon tili deb taʼkidlangan til Bugʻraxon tasarrufidagi barcha ellar tilini oʻzida aks ettirgan adabiy til namunasi boʻlgan. Chunonchi, XI asrning ikkinchi yarmida Qoraxoniylar saltanati Qoshgʻardan tortib Kaspiygacha boʻlgan keng maydonni oʻz tasarrufiga olgan edi. Bepoyon va ulugʻdavlatning markazi Qoshgʻar (Oʻrdukent) boʻlib, uning shimolida muhim markazlaridan Balasogʻun (Kuzurdu), gʻarbda Samarqand bu shaharlar oʻrtasida Oʻzgand kabi bir necha shaharlar bor edi. Oʻsha davrlarda yaratilgan "Qutadgʻu bilig", "Devoni lugʻatit turk", "Hibatul-haqoyiq" kabi asarlarda eski turkiy adabiy til normalari aks ettirilgan. Mazkur adabiy tilning taʼsirini Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziyning "Qisas ar Rabgʻuziy", Qutbning "Xusrav va Shirin", Mahmud bin Alining "Nahjul-Farodis" kabi asarlari tilida koʻramiz.

5. Aytilgan fikrlarning isboti uchun, avval "Nahjul farodis", "Qisas ar Rabgʻuziy", "Xusrav va Shirin", "Guliston bit-turkiy" kabi asarlardan parchalar keltirilib, soʻng ularni lingvistik tahliliga toʻxtaldik. Zero, birinchidan, ushbu risolada qayd etilgan asarlardan parchalarni keltirishdan maqsad, dastavval oʻsha davr adabiy tilining namunasi bilan tanishtirish, u haqda yaqqol tasavvur hosil qilish,

³⁵.Каримов К. Илк девон.-Т.,1972.

ikkinchidan, ilmiy manbalarda o'sha davr tilining fonetikasi, morfologiya va sintaksisiga ko'p o'rinda misollar keltirilmaganligi sababli, ushbu parchalar, ya'ni ilova qilingan matnlar orqali yetarli darajada misollarning berilishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Lekin aytish joizki havola etilgan parchalarda hamma grammatik shakllar uchramasa-da, ma'lum bir guruh affikslarning aktivligi shubhasiz seziladi. Shu maqsadda o'sha davr adabiy tilini o'zida aks ettirgan asarlardan parchalarni havola etdik.

6. Tilshunos olimlarning ishlarida qadimgi turkiy, VII-X asrlar yozma yodgorliklaridan O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi bitiklari tilidagi grammatik xususiyatlarni XI-XIV asrlar xos asarlari tili materiali bilan qiyoslab o'rganish natijasida bu ikki davrlar tilidagi umumiy o'xshashlik bo'lishi bilan birga ayrim farqlar ham mavjudligi qayd etilganini kuzatdik. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki, inson hayotidagi o'zgarishlar, jamiyatimizda yuz bergan har bir yangilik, umuman tarixiy taraqqiyot tilga bevosita ta'sir etadi. Bu esa yozma adabiyotda ham birma-bir aks etadi. Demak, har bir davrda adabiy til o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Buni biz ushbu davrlarga xos yozma manbalarining lisoniy tahlilida kuzatdik.

7. Yozma manbalarda aks etgan adabiy til qurilishining fonetik jihatlarini qiyosiy tarzda kuzatganimizda qadimgi va eski turkiy adabiy tilga xos xususiyatlar yaqqol ko'rindi. Bunda qadimgi tilimizda ba'zi tovushlar shakllanmagan bo'lsa, keyingi davrlarda esa yangi tovushlar shakllanganini kuzatamiz. Chunonchi, bu unli va undosh tovushlar soni va sifatida ko'rinadi. Qadimgi tilda lablanishga moyil bo'lgan til orqa, qattiq talaffuzli â(o) va lablanmagan til

oldi, yumshoq talaffuzli ə(a) va ye(e) tovushlarini mustaqil fonema sifatida shakllanmaganligi (differensiatsiyalashmaganligi) va bu tovushlar eski o'zbek tili davriga kelib shakllanganligini kuzatdik.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, qadimgi tilimizdagi (O'rxun-Enasoy) yozuvida fonemalarni belgilashda turli belgilardan foydalanilgan. Ba'zi fonemalar(variantlari bilan) 2-2ta belgilar bilan ifoda etilgan. Shu kabi uyg'ur va arab yozuvidagi X-XIV asrlar yozma manbalar tillarining fonetik sistemasini to'liq va aniq ifodalash qiyin. Chunki yozuvda izchillik saqlanmagan. Vokalizm sistemasi juda nochor ifodalangan. Arab yozuvi 8-9 unli uchun uch belgi (harf) qo'llangan. Arabcha yozuvda turkiy til unlilarini to'liq ifodalab bo'lmagan. Chunonchi, turkiy nutqdagi ä(ə), â(o), ye(e), ö(y) unli fonemalarni ifodalash uchun maxsus belgi bo'lmagan. Ba'zan yoy belgisi turkiy u (ы), (i), ye tovushlarini ifoda etgan, yoki vov(و) va yoy(ي) belgisi turkiy to'rt unlini -o, i, o, i unlini ifodalagan. Uyg'ur yozuvida esa qo'shimcha belgi oldi qator lablashgan o, i unlilar uchun maxsus harf qo'llanilgan. Umuman, XI-XVII asr adabiy tilida qo'llangan unlilar sistemasini aniq belgilashda qadimgi va eski turkiy davrlari alifbosida ancha murakkablik mavjuddir.

Ushbu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, ba'zi o'rinlarda fonemalar orasida cho'ziq variantlari ham uchraydi. Ba'zi yodnomalar tilida cho'ziq unlilar ishtiroki sezilmasa-da, ba'zilarida bu holat seziladi. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Mahmud bin Alining "Nahjul-farodis"asarida ayrim so'zlardagi unlilarda

cho‘ziqlik xususiyati aks etgan. Lekin bu masalada ham hali yakdillik yetishmaydi. Undosh fonemalar haqida ham ushbu qayd etilgan mulohazali fikrlarni aytish mumkin.

8. Qadimgi davrlarga xos manbalar bilan X-XIV asrlar yozma manbalarining morfologik qurilishi bo‘yicha kuzatilgan tadqiqotlarda har ikkala davrda ma’lum o‘xshashlik va farqli tomonlar mavjudligi seziladi. Umumiy tomoni shundaki, yozma manbalar til materialida hozirgi tilimizga xos so‘z turkumlarini va ularga xos morfologik kategoregoriyalarning mavjudligini aniqlash mumkin. Jumladan, mustaqil va yordamchi so‘zlar guruhi. Ularga xos morfologik kategoriya va vositalar umumiy jihatdan o‘xshasa-da turli fonetik variantlari va qadimiy va yangi shakllari bilan o‘xshash va farqlarga ega.

9. Chunonchi, ko‘plik categoryasining morfologik vositalari orasida-t, -z, -an shakllardagi qo‘shimchalar borki ular juda qadimgi, turkiy tillarning antik davrlariga xos ular keyingi davrlarda iste’moldan chiqib ketgan. Ko‘plikning-lar vositasi barcha davrlar tili uchun asosiy ko‘rsatkich sanaladi. Chunki u barcha davrlar yozma manbalar tilida faol iste’mol qilingan.

10. Egalik kategoriyasiga xos vositalar ham barcha davr yozma asarlarda birdek qo‘llangan. Hozirgi tilimizdan asosan fonetik variantlari ko‘pligi bilan farqlanadi, xolos.

11. Kelishik kategoriyasi ham qo‘shimchalarning fonetik jihatdan ko‘p variantligi va qadimgi davrlar tiliga xos shakllarning mavjudligi bilan farqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz // Adolat. - 1999. -5 fevral.

II. ILMIY VA BADIY ADABIYOTLAR

4. Abdurahmanov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til.-T.: O'qituvchi, 1982.
5. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: O'qituvchi, 1973.
6. Аманжонов А.С. Материалы и исследования по истории древнотюркской письменности. АКД. -Алма-Ата, 1975.
7. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. -T.: G'afur G'ulom, 1991.
8. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. (Nashrga tayyorlovchi A.Abdushukurov). -T.: G'afur G'ulom, 1992.
9. Баскаков Н.А. Тюркские языки.-М.: Изд.Вост. лит. 1960.; 1966.
10. Баскаков Н.А. Алтайская семья языков и её изучение. –М.: Наука, 1981.
11. Бертельс Е.Э. Узбекский поэт Дурбек и его поэма о Иосифе прекрасном. //ДАН. -Т., 1944.

12. Боровков А.К. Очерки по истории узбекского языка. (Определение языка хикметов Ахмада Яссеви). //Советское востоковедение. -Баку,1948.
13. Боровкова Т.А. Грамматический очерк языка “Дивану лугатит-турк” Махмуда Кашгари. АКД. -Л., 1966.
14. Евтюхова Л.А. Археологические памятники енисейских киргизов. – Абакан, 1948.
15. Ilminskiy N.I. “Kisas al-anbiyo”.-Т.:Litografiya eski Tashkent, 1916.
16. Каримов К. Категория падежа в языке “Кутадгу билиг”: АКД. -Т., 1962.-26 с.
17. Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. -М., 1954.
18. Кляшторный С.Г. Эпоха Махмуда Кошгари. // Советская тюркология. -Баку, 1972. - № 1.
19. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников «VII-IX вв.» -Л.: Наука, 1980.
20. Lapasov J. ”Yusuf-u Zulayxo” dostoni morfologiyasi.-Т.: Fan, 1988.
21. Lutfiy. Devon (“Gul va Navro‘z”).-Т.: G‘afur G‘ulom, 1965.
22. Малов С.Е. Из третьей рукописи “Кутадгу билиг”. -М.: Изд. АН. СССР. Отд. гуман. наук, 1929. - № 9.
23. Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи. Записки коллегии востоковедов Т.В. (в честь акад. И.Ю. Крачковского). -Л.: Изд.вост. лит., 1930.

24. Малов С.Е. “Кутадгу билиг” Факсимилье. //Ж. Советское востоковедение. -М., 1948. -№ 5.
25. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности.-М.-Л. 1951.
26. Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков.-М.-Л. 1952
- 27.Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asari haqida. -Т.: Fan, 1972.
- 28.Mahmudov Q. XIII-XIV asr yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. -Т.: Fan, 1974.
29. Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. -Т.: Fan, 2004.
30. Мирзакаримова У. Морфологические особенности “Киссаи Рабгузи”. АКД. -Т., 1969.
31. Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. -Т.: Fan, 1959.
32. Muxtorov A.,Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi.-Т. O‘qituvchi, 1995.
33. Наджип Э.Н. Кыпчакско-огузский литературный язык мамлюкского Египта XIV века. АДД. -М., 1965.
34. Наджип Э.Н. Исследование по истории тюркских языков XI-XIV вв. -М.: Наука, 1989.
35. Ne‘matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. -Т.:O‘qituvchi, 1992.
36. Nosiriruddin Burxoniddin Rabg‘uziy. Qisas ar Rabg‘uziy . 2-kitob. (Nashrga tayyorlovchilar E.I.Fozilov, A. Yunusov, H. Dadaboyev).-Т.:Yozuvchi, 1-k. 1990., 2-k. 1991.

37. Сагындыков С.А. Сравнительный анализ лексики тюркоязычных памятников XIV века (по материалам “Мухаббат-наме” Хорезми, “Хусрав и Ширин” Кутбаи, “Гулистан бит турки” Сайфи Сараи. АКД. –Алма-Ата, 1977.
38. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi (ilk taraqqiyoti davrlari). - Т.: Fan, 2001.
39. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tilining ilk davrlari. -Т.: G‘. G‘ulom, 2004.
40. Фазылов Э.И. Староузбекский язык хорезмских памятников XIV в. В 2-х.т. –Т., t.1 1966-1971.; Т. 2.1971.
41. Файзуллаева Ш.А. Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булгат ал-муштак фи лугат ат-турк вал-кипчак” Джамал ад-дина ат-Туркий”. АКД. - Т.: Фан, 1969.
42. Fozilov E.I. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-Т.:O‘qituvchi, 1965.
43. Fozilov E.I. Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili. -Т.: Fan, 1969.
44. Fozilov E. I. XIV asr Xorazm yodnomalari (Kutb. Xusrav-u Shirin. -Т.: Fan,1973.
45. Хорезми. Мухаббат-наме (Издание текста, транскрипция, перевод и исследование Э.Н. Наджиба). -М.: Изд.Вост лит., 1961.
46. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig (Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov). -Т.: Fan, 1971.
47. XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklari tili.-Т.: Fan, 1986.
48. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. -М.-Л. 1962.

Shartli qisqartmalar

ADJ - doktorlik dissertasiyasi avtoreferati
AKJ-nomzodlik dissertasiyasi avtoreferati
DD – doktorlik dissertasiyasi
DLT – Mahmud Koshgariy.Devoni lug‘otit turk
DH – Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat
MK – Mahmud Koshgariy.Devoni lug‘otit turk
MN – Xorazmiy. Muhabbatnoma
Rabg‘. – Rabg‘uziy. Qisasi ar-Rabg‘uziy
Taf. – Tafsir
XIII – Kutb. Xusrav va Shirin
YuZ – Durbek. Yusuf va Zulayho
O‘N – O‘g‘uznoma
QB – Yusuf xos Hojib. Qutadg‘u bilig
QYu-Ali. Qissai Yusuf
HH – Ahmad Yugnakiy. Hibat-ul haqoyiq

Transkripsiya va qo‘shimcha belgilar :

a -til orqa, lablanmagan keng unli
ə - til oldi, lablanmagan keng unli
ô (e)- til oldi, lablanmagan o‘rta keng unli
o -til orqa), lablangan o‘rta - keng unli
ö- til oldi, lablangan o‘rta-keng unli
u-til orqa, lablangan tor unli
y-til oldi, lablangan tor unli

ы- til orqa, lablanmagan tor unli

i- til oldi, lablanmagan tor unli

Shuningdek, “Devoni lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” va boshqa asarlar matnlarida hamda A.K.Borovkov, A.N.Kononov, E.N.Nadjip kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi matnlardan olingan misollar transkripsiyasi o‘z holicha qoldirildi. Jumladan, qadimgi turkiy tilga xos tovushlarini ifodalash uchun quyidagi belgilar qo‘llanilgan **d(δ)**–dz (ж) yoki d-z-j; j (**Ĵ**)-y; **i(i)**, **ï(ы)**, **ÿ(ү)**, **ä(ə)**, **γ(g‘)**, **н(ng)**, **η(ng‘)**.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
-----------------	---

BIRINCHI BOB

QARLUQ(CHIGIL-UYG‘UR) DIALEKTAL XUSUSIYATI

USTUNLIGIDAGI ADABIY TIL.....	11
1.1.Qoraxoniylar va ular sulolasining yuzaga kelishi.....	12
1.2.Adabiy markazlardagi badiiy aloqalar.....	16
1.3. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuni.....	18

IKKINCHI BOB

X-XIV ASRLAR ADABIY TILI VA YOZMA

YODGORLIKLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

2.1. Fonetik xususiyatlar.....	33
2.1.1. Unli fonemalar.....	33
2.1.2. Undosh fonemalar.....	35
2.2. Morfologik xususiyatlar.....	38
2.2.1. Ot so‘z turkumi.....	38
2.2.2. Otlarda ko‘plik ma’nosi.....	38
2.2.3. Otlarda egalik kategoriyasi.....	40
2.2.4. Otlarda kelishik kategoriyalari.....	41
UMUMIY XULOSALAR.....	48
ADABIYOTLAR.....	53
Shartli qisqartmalar.....	56
Transkripsiya va qo‘shimcha belgilar	56

SHAVKAT MAHMADMURODOV

**QADIMGI TURKIY YOZMA
YODGORLIKLARINING TIL XUSUSIYATLARI
TAHLILI HAQIDA
(X-XIV asrlar yozma yodgorliklari)**

MONOGRAFIYA

Muharrir M. Boltayev

Mussahhih M. Ro‘ziboyev

Tex. muharrir Z. Umarov

*2010-yil 14-sentabrda original-maketdan
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84/ 1,16. “Times New Roman”
garniturasida. Ofset qog‘ozida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 2,6. Nashriyot hisob tabog‘i 5,25.
Adadi 100 nusxa. 095 -buyurtma.*

***SamDU bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.***